

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT ARXITEKTURA–QURILISH INSTITUTI

ARXITEKTURA FAKULTETI
«Landshaft dizayni va interyeri» kafedrası

5150900 – «Dizayn» yo'nalishi bo'yicha
bakalavr diplom loyiha ishining

TUSHUNTIRISH XATI

Mavzu: Respublika o'lkashunoslik muzeyining arxitekturaviy
dizayn yechimi

Bitiruvchi: Normirzayev Ulug'bek Alijon o'g'li

(imzo.)

Rahbar: Zoyirov G'aybulla A

(imzo.)

Konsultant: _____

(imzo.)

TOSHKENT ARXITEKTURA-QURILISH INSTITUTI
Arxitektura fakulteti Dizayn 5150900 yo'nalishi
2-11 Du guruhi

«TASDIQLAYMAN»
«Landshaft dizayni va interyeri»
kafedrası mudiri
Vetlugina A V
«___» iyun 2015yil

Diplom ishi bo'yicha
T O P S H I R I Q

BITIRUVCHI: Normirzayev Ulug'bek Alijon o'g'li
(F.I.SH.)

1. Diplom ishi mavzusi: Respublika o'lkashunoslik muzeyining arxitekturaviy dizayn yechimi

«31» yanvar 2015 yildagi № 2/42 buyruq bilan tasdiqlangan

2. Diplom loyihasini bajarish uchun ma'lumotlar

O'lkashunoslik muzeyining arxitektura va dizayn yechimi yuzasidan topshiriqlar.

3. Tushuntirish xatida keltiriladigan ma'lumotlar:

a) Arxitektura qismi O'lkashunoslik muzeyining arxitekturaviy va konstruktiv yechimi

b) Badiiy-dizayn qismi O'lkashunoslik muzeyining badiiy – dizayn yechimi, interyer yechimi.

v) Atrof- muhit ekologiyasi qismi O'lkashunoslik muzeyining atrof - muhit va ekologiyaga ta'siri, muzeyining ekologiyasi.

g) Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati _____

4. Grafik material ro'yxati (majburiy chizmalar va masshtab ko'rsatilishi bilan)
O'lkashunoslik muzeyining tarz yechimi tarx yechimi

5. Diplom loyihasi qismlari bo'yicha konsultantlar

№	Diplom loyihasi qismlari	Boshlanish muddati	Tugallanish muddati	Imzo	Maslahatchining familiyasi
1.	Arxitektura	25.05			Sayfuddinov S
2.	Badiiy-dizayn	25.05			Zoyirov G'.A
3.	Atrof muhit ekologiyasi	25.05			Mirkomilov I

6. Topshiriq berilgan sana: _____ 2015

7. Tugallangan diplom loyihasini topshirish sanasi: _____ 2015

Diplom loyihasi rahbari: Zoyirov G' A

Kafedra mudiri: Vetlugina A V

MUNDARIJA

bet:

1. Kirish.....
2. Arxitektura qismi.....
3. Badiiy-dizayn.....
4. Atrof muhit ekologiyasi.....
5. Foydalanilgan adabiyotlar.....
6. Ilova.....

KIRISH

Yer yuzida 200 dan ortiq davlatlar bo'lib, har biri o'ziga xos urf-odatlariga ega. Bu urf-odatlar har bir davlatlarda har xil ko'rinishlarga egadir. Bugungi kunda turizm sohasining rivojlanib borishiga turtki bo'layotgan sabablardan biri ham ana shu har bir davlatning o'ziga xos urf-odati va san'atidir. Shu bilan birga har bir davlatning san'ati, urf-odat, an'analari ularning faxri hamdir.

Yurtimiz mustaqillikka erishganidan so'ng prezidentimiz Islom Karimov barcha sohalar kabi xalq amaliy san'atini rivojlantirishga ham katta e'tibor qaratdilar. Bunga misol qilib prezidentimiz Islom Karimovning xalq badiiy hunarmandchiliklari va amaliy san'atni yanada rivojlantirishni davlat yo'li bilan qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risidagi farmonini keltirishimiz mumkin.

PF №1741 XALQ BADIY HUNARMANDCHILIKLARI VA AMALIY SAN'ATNI YANADA RIVOJLANTIRISHNI DAVLAT YO'LI BILAN QO'LLAB-QUVVATLASH CHORA-TADBIRLARI TO'G'RISIDA O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING FARMONI

XALQ BADIY HUNARMANDCHILIKLARI VA AMALIY SAN'ATNI YANADA RIVOJLANTIRISHNI DAVLAT YO'LI BILAN QO'LLAB-QUVVATLASH CHORA-TADBIRLARI TO'G'RISIDA

Milliy madaniyatni rivojlantirishda xalq badiiy hunarmandchiliklari va amaliy san'atining ahamiyatini oshirish, qo'lda ishlanadigan yuksak badiiy buyumlarni tayyorlash asriy an'alarini va o'ziga xos turlarini qayta tiklash hamda xalq hunarmandlariga davlat tomonidan madad ko'rsatish maqsadida:

1. Xonadon sharoitida yuksak badiiy buyumlar ishlab chiqaruvchi xalq hunarmandlariga ularni mahalliy xom ashyo, materiallar, asboblari va kichik mexanizatsiya vositalari bilan ta'minlashda, ko'rgazmalar va kimoshdi savdolarini o'tkazishda, tayyor mahsulotlarni sotish bo'yicha ixtisoslashtirilgan do'konlar va kiosklar tarmog'ini tashkil qilishda, yoshlarni xalq san'ati ustalarining ko'nikmalariga o'qitib o'rgatish uchun zarur shart-sharoitlarni vujudga keltirishda amaliy yordam ko'rsatish Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining, viloyatlar, shaharlar va tumanlar hokimliklarining, respublika vazirliklari va idoralarining eng muhim vazifasi deb hisoblansin.

2. Belgilab qo'yilsinki, xonadon sharoitida xalq badiiy hunarmandchiligi va amaliy san'atining mazkur turlardagi buyumlarini ishlab chiqarish bilan band bo'lgan yakka tartibda faoliyat ko'rsatuvchi tadbirkorlar o'z mahsulotining narxlarini iste'mol bozoridagi talab va takliflardan kelib chiqqan holda mustaqil ravishda belgilaydilar.

(2-band O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 1 apreldagi PF-3983-sonli Farmoni tahririda — 2008 y., 14-15-son, 96-modda)

3. Badiiy hunarmandchilik va amaliy san'atning eng yaxshi namoyondalari xizmatlarini, ularning milliy madaniyatni yanada rivojlantirishga va iste'dodli yoshlarni tayyorlashga qo'shgan hissasini rag'batlantirish maqsadida «O'zbekiston Respublikasi Xalq ustasi» unvonini ta'sis etish maqsadga muvofiq deb topilsin.

4. Xalq ustalarining, «Usto» birlashmasi va «Musavvir» ilmiy-ishlab chiqarish markazining ushbu markaz huzurida xalq hunarmandlarining Qoraqalpog'iston Respublikasida, viloyatlarda va Toshkent shahrida bo'linmalarga ega bo'lgan «Hunarmand» uyushmasini tashkil etish to'g'risidagi takliflari qabul qilinsin.

5. Quyidagilar Uyushma faoliyatining asosiy yo'nalishlari etib belgilansin:

xalq hunarmandlarining mehnat faoliyati masalalarini muvofiqlashtirish, respublika qonunchiligi tomonidan ularga beriladigan huquqlar va manfaatlarni himoya qilish;

ustalar va hunarmandlarni moddiy-texnika resurslari, asboblari, kichik mexanizatsiya vositalari bilan ta'minlashni, ishlab chiqarilgan mahsulotni sotishda, shu jumladan eksport qilishda yordam berishni nazarda tutgan holda ularga uyda ishlashlari uchun shart-sharoitlar yaratishda ko'mak berish;

bozor talablarini o'rganish hamda yuksak badiiy buyumlar tayyorlash uchun mahalliy xom ashyo va materiallarning yangi turlaridan foydalanish bo'yicha tavsiyanomalar ishlab chiqish;

mamlakat ichkarisida va chet ellarda xalq ustalarining buyumlari keng targ'ib va reklama qilinishini, rasmlari, materiallar va kataloglar chiqarilishini, ko'rgazmalar va kimoshdi savdolari o'tkazilishini tashkil etish;

xalq san'atining noyob turlarini va buyumlarning yuksak badiiy nusxalarini tayyorlashda an'analarni saqlab qolish hamda bu ish ko'nikmalarini yoshlarga singdirish, mohir ustalarni tayyorlash bo'yicha maxsus maktablar tashkil qilish.

6. Shu narsa belgilansinki, xalq hunarmandlarining Respublika «Hunarmand» uyushmasi mablag'lari uyushmaning o'z tadbirkorlik faoliyati, a'zolarining

badallari, homiylarning, O'zbekiston Respublikasi rezidentlari bo'lmish yuridik shaxslar va xalqaro tashkilotlarning mablag'lari hisobidan shakllanadi.

Uyushmaga bir yo'la moliyaviy yordam ko'rsatish uchun 150 mln. so'm, shu jumladan O'zbekiston Respublikasi Davlat mulki qo'mitasining mablag'lari hisobidan — 50 mln. so'm, Mehnat vazirligining ish bilan ta'minlashga ko'maklashish Jamg'armasi hisobidan — 50 mln. so'm, Vazirlar Mahkamasining zaxira jamg'armasi hisobidan — 50 mln. so'm ajratib berilsin.

7. «Musavvir» ilmiy-ishlab chiqarish markazi bir oy muddatda:

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari bilan birga hududiy uyushmalarni tashkil etish va ularning normal ishlashi uchun zarur shart-sharoitlarni ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar majmuini amalga oshirsin;

«Hunarmand» uyushmasining ta'sis konferensiyasini o'tkazsin va uning Nizomini qabul qilsin.

8. Vazirlar Mahkamasi bir hafta muddatda ushbu Farmonning bajarilishini tashkil etish yuzasidan qaror tayyorlasin.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti I. KARIMOV

ARXITEKTURA

BO'LIMI

Konsultant: Sayfuddinov S

(imzo)

Ma'sul rahbar: Borodina M.R.

(imzo)

Bitiruvchi: Normirzayev U A.

(imzo)

ARXITEKTURA BO'LIMI

“Xalq amaliy san’ati galeriyasi” Surxondaryo viloyati Termiz tumanida katta magestral yo’li yonida joylashgan bo’lib , atrofida aholi turar joylari mavjud.

“Xalq amaliy san’ati galeriyasi” ni aynan ushbu hududga joylashtirishimdan maqsad , yuqorida aytib o’tilgan katta magistral yo’li chet davlatlarga chiquvchi asosiy yo’l hisoblanadi. Bu yo’lning bir tomoni Afg’onistonga , ikkinchi tomoni esa shaharga olib chiqadi. Ushbu katta magistral yo’li orqali juda ko’p chet davlatlarga chiqish imkoni mavjud.



“Xalq amaliy san’ati galeriyasi” ni loyihalashda quyidagi “Qurilish me’yorlari va qoidalari” hujjatlariga asoslanib ishlab chiqilgan:

1. KMK 2-08. 02-09. “Jamoat binolari va inshootlari”
2. KMK 2-03. 10-95. “Tomlar va tomqoplamalar”
3. KMK 2.01.03-96. “Zilzilaviy hududlarda qurilish”
4. KMK 2. 07. 01-94 “Loyihalash uchun iqlimiy va fizikaviy , geologik ma’lumotlar”



KONSTRUKTIV YECHIMI

Har bir loyihalalanayotgan bino konstruktiv yechimga ega bo'lishi kerak. Bino mustaxkamligi va chidamliligi konstruktiv yechimga bog'liq. Bino konstruksiyasiga qo'yiladigan talablar quyidagicha:

- Funktsional talab – bino qaysi jarayonga mo'ljallangan bo'lsa, shu jarayonning talablariga to'la javob berishi kerak;

- Texnik talablar – mustahkamlik talablariga to'la javob berishi kerak. bunda loyihaning to'g'ri tanlangani, atmosfera ta'siriga chidamliligi va seysmik talabga to'liq javob berishi kerak;
- Arxitekturaviy-badiiy talab – binoning ichki va tashqi ko'rinishi barcha talabga javob berishi kerak.

Binoning konstruktiv elementlari: poydevor, devor, zinalar, parda devorlar, eshik va derazalar, ustunlar va h.k. “Xalq amaliy san'ati galariyasi” loyihasi taklif qilinayotgan hudud, eng avvalo, konstruktiv jihatdan o'rganib chiqildi.

- Qurilish hududi – Navoiy tumani
- Iqlimi – keskin kontinental
- Hududning zilzila bardoshligi – 7 ball

Bino konstruktiv jihatdan mustahkamlik darajasi bo'yicha karkasli va temir betondan bo'lsa, to'liq ravishda talabga javob beradi. Galariya binosida ham karkasli, ham temir beton konstruksiyasidan foydalanildi. Kompleks loyihasini konstruksiyalashda KMK me'yoriy hujjatlar talablarini hisobga olgan holda rejalashtirildi. Eng avvalo, asos grunti o'rganib chiqildi, geodezik olimlar tomonidan hudud ko'rib chiqildi. Asos tuprog'i laboratoriyada o'rganiladi. Zamin gruntining yuk ko'taruvchanligi, seysmik jihatdan mustahkamligi hisoblandi.

Poydevor yer osti qismiga bog'langan bo'lib, u barcha tushadigan og'irlikni qabul qilib, asosga uzatadi. Asos esa yerga tarqatadi. Poydevor ostida joylashib, binoning og'irligini o'ziga qabul qiluvchi tuproqning massasiga asos deb ataladi. Asoslar 2 xil bo'ladi: tabiiy asos va sun'iy asos. Bu loyiha ishi tabiiy asosga egadir. Tabiiy asos deb, qurilgan binoning og'irligini o'zining tabiiy holatida ko'tarib tura olishi mumkin bo'lgan poydevor osti tuprog'iga aytiladi.

Asosiy konstruksiya temir-beton karkas va g'ishtdan. Temir beton konstruksiyasi ichki chizmalarga asosan qilingan. Eng yuqori binosi yerto'la qavati bilan 4 qavatni tashkil etib, har bir qavat deformatsiya choklari bilan bo'lingan. Binoning yuk ko'taruvchi ustunlari (kollona) monolit temir-betondan loyihalangan. Bino poydevori yuk ko'taruvchi g'ishtli devor tagida B20 (M250) sinfiga oid

portlandsementda tayyorlangan o'zaro kesishgan monolit temir-beton lentasimon, ustunlar osti esa ustunsimon qilib loyihalangan. Rigellar (ustunlar) monolit temir-betondan tayyorlanga bo'lib, kesimlari to'g'ri to'rtburchak shaklida 400x500 mm. qilib, B25 klassdagi betonlardan tayyorlanadi. Qavatlar aro yopmalar esa monolitdan, bog'lovchi to'sinlar ham qurilish maydonida temir-betonlardan monolit usulda o'rnatiladi. Binoning birinchi qavat balandligi – 3.60m, 2-3 qavati– 4.20 m,etadi.

Devorlar binoning asosiy konstruktiv elementi bo'lib, ular tashqi muhitdan himoyalashdan tashqari o'ziga tushadigan yukni qabul qilib poydevorga uzatuvchi qurilma hisoblanadi. Tashqi devorga qo'yiladigan talablar: qor va yog'ingarchilik ta'siriga chidamliligi, shamol tezligiga ta'siri, quyosh radiatsiyaga bardoshliligi, temperature ta'siri, seysmik ta'sir va boshqalar. Devorlar asosan materialiga qarab paxsadan, g'ishtdan, yog'ochdan, betondan tayyorlanadi. Devorlar 3 turga bo'linadi: yuk ko'taruvchi, o'zini- o'zi ko'tarib turuvchi va osma devorlar. Muzey binosida asosan yuk ko'taruvchi devor qo'llanilgan.

Tashqi devor panellarining konstruksiyasi bir va uch qatlamli bo'lishi mumkin. Bir qatlamli panellar, odatda, keramzit beton yoki yengil betonlarning boshqa turlaridan tayyorlanadi. Uch qatlamli panellarning ikkita chetki qatlami temir-betondan ishlanib, o'rta qatlami mineral paxta, ko'pik beton singari issiq-sovuqni o'tkazmaydigan materiallardan tayyorlanadi. Uch qatlamli panellar ichkariga qaragan temir-beton qatlami yuk ko'taruvchi qatlam hisoblanadi. Uning qalinligi hisob bilan belgilanib, zilzila kuchi 7 -8 ballgacha mo'ljallangan hududlar uchun 8sm va 9 balli hududlar uchun 10 smdan kam bo'lmasligi lozim.

Demak bizning hudud 8 balli bo'lsa ham, yuk ko'taruvchi qatlam qalinligini 10 sm qilib oldik. Bu bino devorining mustahkamligini oshiradi. Tashqi devorlarni loyihalayotganda iqlimdan kelib chiqib, deformatsiya choklari qo'yiladi. Deformatsiya choklari ham 3 turga bo'linadi: temperature, cho'kish va zilzilaga qarshi choklar. Loyihalangan bino tashqi devorlarida temperatura choki qo'yilgan bo'lib, bu chok qalinligi 25 mm qilib olingan. Chok poydevorgacha keladi va

harorat o'zgarganda devordagi turli xil yoriqlar oldini olish uchun qo'llanilgan. Ichki devorlar ham bir qator vazifalarni bajaradi. Xonalarni ajratish bilan birga tovush o'tkazmaslik ham muhim vazifa. Ichki devorlar bir qatlamli qilib ishlangan bo'lib, panel qalinligi 12 sm qilib olingan.

Parda devorlar ichki devor guruhlarini tarkibiga kirib, ko'ndalang va bo'ylama yo'nalishda joylashishi mumkin. Me'yoriy hujjatlarga asosan bir xonadan ikkinchi xona o'rtasidagi parda devorlarning tovush o'tkazmaslik xususiyati 0dB ga teng, xonalar orasida 9dB bo'lishi kerak. (dB – tovush bosimining o'lchov birligi) Insonning tovush bosimi to'lqinlarini qabul qilish qobiliyati 0 bilan 12 dB oralig'ida yotadi.

Parda devorning massasi oshgan sari tovush o'tkazmaslik xususiyati ham ortib boradi. Tovush energiyasi zichliklari har xil bo'lgan ko'p qatlamli parda devorlardan o'tganda o'z kuchini yo'qotadi. Agar qatlamlar orasida bo'shliq ko'zda tutilsa, bunday parda devorlar tovush o'tkazmaydi. Binoning turiga qarab parda devorlar o'tga chidamli yoki yonmaydigan bo'lishi kerak.

G'ishtli binolarni seysmik mustahkamligini oshirish uchun bir qancha tadbirlar o'tkaziladi: 1- seysmik kamarlar ishlatiladi, seysmik kamar balandligi kamida 15 sm. Eni asosan devor eniga bog'liq, agar devor 2 yoki undan ortiq g'isht bo'lsa, kamar eni devor enidan kichikroq bo'lishi mumkin.

Galeriyaning pastki qismida yerto'la mavjud. Yer to'la poldan balandligi – 3.60 m ni tashkil etadi. Har bir qavat orasida qavatlar aro yopmalardan foydalanilgan. Qavatlar aro yopmalar – binoning asosiy konstruktiv elementi bo'lib, uni balandligi bo'yicha qavatlariga ajratib turadi. Qavatlar aro yopmalarga qo'yiladigan talablar:

- Mustahkamlik;
- Doimiy va vaqtinchalik yuklar ta'siriga chidamlilik;
- Tovush o'tkazmaslik;
- Suv va bug'lar o'tkazmaslik;
- O'tga chidamlilik va boshqa talablar.

POYDEVORLAR

Poydevorlar – yer osti konstruksiyalari bo`lib, o`zidan yuqorida turgan konstruksiyalar og`irliklarini qabul qilib, gruntlarga uzatib beruvchi konstruksiyalardir. Poydevorga yuqoridan devor va ustunlarning xususiy og`irligi, pastdan esa zaminning teskari bosimi ta`sir etadi.

Inshoot zamini deganda yuqoridan tushayotgan yukni qabul qiladigan hamda shu yuk ta`sirida kuchlanish va deformatsiya holatida bo`ladigan grunt massasi tushuniladi. Zamin qancha kam va tekis deformatsiyalansa, uning qurilish sifatleri shuncha yuqori bo`ladi; inshootda qo`shimcha kuchlanishlar shuncha kam hosil bo`ladi.

Inshoot va gruntga mos poydevor tanlash loyihalashtirishning muhim masalalaridan biridir. Zamin va poydevorlarning bir necha variantini texnik iqtisodiy analiz qilish yo`li bilan uning ishchi varianti qabul qilinadi. Poydevorlar yetarli darajada mustahkam, puxta, sovuqqa va yer osti suvlarining agressiv ta`siriga chidamli bo`lishi kerak. Poydevorlarning tarxdagi o`lchamlari shunday olinishi kerakki, yuqoridan tushayotgan hisobiy yuklar ta`sirida poydevor ostki sirtida hosil bo`ladigan o`rtacha bosim, gruntga beriladigan bosimdan ortib ketmasin; poydevorning cho`kishi normada ko`rsatilgan darajada bo`lishi kerak.

Har qanday poydevor loyihasida ikkita xarakterli tekislik bo`ladi, inshoot tayanuvchi ustki sirt ( ustki tekislik ) hamda grunt bilan tutashib turuvchi ostki sirt ( ostki tekislik). Poydevorlar chuqurligi, yuk ta`sirida ishlash xarakteri, konstruktiv shakli, materiali, vazifasi hamda ishlanish uslubiga ko`ra bir necha turlarga bo`linadi. Chuqurligiga ko`ra sayoz va chuqur poydevorlar bo`ladi. Loyiha shakliga ko`ra alohida, yaxlit lentasimon, massiv, aralash va qoziqli poydevorlar bo`ladi.

Rekonstruksiya qilinayotgan ushbu inshootning poydevori ham yaxlit lentasimon poydevor bo`lib, o`ta mustahkam.

MONOLIT TEMIRBETON RAMALAR

Monolit temirbeton ramalar PM-1; PM-2; PM-3; PM-4; PM-5; PM-6;

Rekonstruksiya qilinayotgan Toshkent shahridagi “31-Mehribonlik uyi” ning yuk koʻtaruvchi negizi monolit temirbetonli bikr rama tugunli fazoviy karkas sxema boʻyicha loyihalangan.

Rama ustunlari monolit temirbetonlardan kesimlari kvadrat shaklida 400x400 mm. qilib, B25 klassdagi betonlardan tayyorlanadi va diametri Ø 25A-III, Ø 22A-III, Ø 20A- III, Ø 16A- III, Ø 8A- I (ГОСТ5781-82*) boʻlgan ishchi va konstruktiv oʻzaklar bilan oʻzaklanadi.

Rama rigellari monolit temirbetonlardan tayyorlangan boʻlib, kesimlari toʻgʻri toʻrtburchak shaklida 400x520 mm qilib, B25 klassdagi betonlardan tayyorlanadi va diametri Ø22A-III, Ø25A- III, boʻlgan ishchi oʻzaklari bilan oʻzaklanadi, B25 sinfli betondan tayyorlanadi.

DERAZA VA ULARNING KONSTRUKTIV YECHIMI

Xona ichiga tabiiy yorugʻlik devordagi vertikal – tomlardagi gorizantal joylashgan derazalar orqali tushadi. Derazalar qurilish normalariga asosan ishlab chiqiladi. Deraza materiali yogʻoch, temir – beton, plastic va alyumindan boʻlishi mumkin. Derazalar ochilish usuliga qarab ham bir necha turlarga boʻlinadi:

- 1 tabaqali
- 2 tabaqali
- 3 tabaqali
- Surilib ochiladigan
- Tabaqalar yuqori va pastga ilingan
- Jalyuzali

Xozirgi zamonaviy arxitekturada derazalardan o'zgacha usulda qo'llanilmoqda. Loyihadagi choyxona va restaranda derazalar juda chiroyli ishlangan. Materiali plastikdan bo'lib, o'zgacha shakl berilgan. Choyxonada derazalar faqat old qismga o'rnatilgan, tepa qismi gumbazsimon rom. Restaranda ham derazalar old qismni bezab turibti va har bir bo'rtib chiqqan qismga oval shaklda derazalar qo'yilgan.

Derazalar ustiga milliy naqshdan bezak berilgan. Deraza oynalari qanchalik katta bo'lsa, xonaga shuncha ko'p yorug'lik tushadi. Tabiiy yorug'lik inson salomatligi uchun foydalidir. Yorug'lik yetarli darajada bo'lishi uchun tom qismida ham kichik hajmdagi derazachalardan foydalanilgan. Mahalla idoralari honalarida ham gumbazsimon, plastikli derazalardan foydalanilgan. Xonalar balandligi – 4 m.

POL VA ULARNING KONSTRUKTIV YECHIMI

Bino loyihalanayotganda pol va ularning konstruktiv yechimi ham ko'rib chiqilgan. Pollar to'g'ridan -to'g'ri oraliq yopmalar ustidan, podvalsiz binolarimizda esa to'g'ridan- to'g'ri grunt ustidan pollar tayyorlanadi. Pollarning yuzasi qoplama yoki haqiqiy pol deyiladi. Pollarning turlari ham ko'p: yog'och taxtali pollar, lenolium pollar, keramik pollar, mozaykali pollar va boshqalar.

Agar bino podvalsiz bo'lsa, u holda o'lchami 25x25 sm bo'lgan tumbalar ustiga lagalar qo'yib qoqib chiqiladi. Taxta pollar shpuntlarining shakli to'rtburchak, doira yoki trapetsiya shaklida bo'lishi mumkin. Loyihadagi bino xonalarida to'rtburchak shaklidagi taxta pol shpuntlaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Yog'och taxta pollar ustidan esa, devor konstruksiyasi bilan birikkan joyida esa plintuslar ishlatiladi.

ZINALAR

Zinalar qavatlar orasidagi aloqani amalga oshirishga hizmat qiluvchi asosiy yuk ko'taruvchi konstruksiyalardandir. Bundan tashqari zinalar tabiiy ofat, yong'in

va avariya vaqtida kishilarni binodan tez evakuatsiya qilish xizmatini bajarishi kerak. Zinalar vazifasiga qarab quyidagi hillarga bo'linadi:

- Asosiy va yordamchi zinalar, qavatlar orasida kishilarning kundalik ommaviy qatnovi va binodan tashqariga chiqish uchun xizmat qiladigan zinalar.
- Yordamchi zinalar – o't o'chirishda, avariya vaqtida foydalaniladigan, chordoqqa chiqish va yerto'laga tushish uchun xizmat qiladigan zinalar kiradi.

Zinalar qiya joylashgan marshlar, gorizantal supachalar va harakat xavfsizligini ta'minlovchi tutqichlardan iboratdir. Zina devorlari yetarli darajada o'tga chidamli bo'lgan maxsus xonalarda zina kataklarida quriladi. Binodagi zinalarning soni, joylashishi, o'lchamlari, qabul qilingan binoning arxitektura – tarxiiy yechimiga, qavatlar soniga odamlar harakati oqimining shiddatiga (intensivligiga) bevosita bog'liq.

TOMLAR VA TOM QOPMALARI

Binoni ustki qismini tashqi muhitdan tomlar va yopma himoya qiladi. Tomlar shakli, nishablarining qanday qiyalikda bo'lishi, binoning tarxdagi o'lchamlariga va ko'rinishiga, tom yopmasining materialiga, suvni tushirish usuliga, iqlim sharoitiga, texnik-iqtisodiy sharoitlariga hamda bino arxitekturasiga oid mulohazalarga bog'liqdir. Tom va tom yopmalarning shakli bir nishabli va ikki nishabli bo'ladi. Shuningdek to'rt nishabli, gumbazsimon qubba, konussimon va boshqa xil tomlar ham bo'ladi.

Nishablarning bir-birini qiya holda kesib o'tishidan turtib chiqqan burchak qovurg'a (rebro) yoki ichkariga kirgan burchak yondova hosil qiladi. Bir tomning hamma nishablari, odatda, bir xil qiyalikda bo'lishi kerak.

Tom va tom yopmalarning shakli imkoniyat darajasida oddiy bo'lishi va imkon boricha yondovasiz bo'lishi kerak, chunki yondova tomning mustahkam qismi hisoblanadi va doimiy tekshirib, qarab turishni talab qiladi.

Tom va yopmalar tomlar nishablarining qiyaligi nishab qiyaligi bilan gorizont orasidagi uning gorizont holatiga nisbati bilan, ya'ni protsentlarda (%) yoki kasrlarda ifodalangan qiyalik burchagining tangensi bilan o'lchanadi.

Tom va yopma tomlar qiyaligiga qarab ikki guruhga bo'linadi:

- qiyaligi 5 % va undan ortiq bo'lgan nishab tomlar;
- qiyaligi 0 dan 5 % gacha bo'lgan tekis tomlar.

Chordoqning balandligi uning ichida bemaolol yurish imkoniyatidan kelib chiqqan holda o'rtacha 1,6 m dan kam bo'lishi mumkin emas. Hozirgi kunga kelib tom yopmalarining ham turli ekologik toza va chidamli turlari ishlab chiqarilmoqda.

Temir cherepitsa — varoq to'shama tunika ko'rinishdagi yupqa po'lat, aluminiy yoki misdan tayyorlangan, polimer bo'yoq qatlami bilan qoplangan, sovuq bosim yordamida maxsus ishlov berilgan (profillangan) tombop ashyo hisoblanadi. Po'latdan tayyorlangan cherepitsa qiyalik burchagi 14° ga teng bo'lgan sharoitda tom yopish uchun qo'llaniladi. Tom yopishning ushbu turidan -50°C dan $Q50^{\circ}\text{C}$ gacha bo'lgan havo haroratida atrof muhitning zararsiz yoki kam zararli sharoitlarda foydalanish tavsiya etiladi.

Po'lat cherepitsaning umumiy og'irligi 1 mg hisobida taxminan 5 kg ni tashkil etadi (taqqoslash uchun: sopol - 38-40 kg, shifer - 10-15 kg).

Tarkibi kam uglerodli po'latdan tayyorlangan tunika varoq. Uning yuzasi elektroliz yo'li bilan yoki eritmaga solish usuli bilan ikkala tomondan simli himoyalovchi qatlam bilan qoplanadi, keyingi qatlam xomaki (gruntovka) himoyalovchi tabiiy qoplama bo'lib, uning ustidan rangli polimer surtiladi. Polimer qatlam deformatsiya bo'lganda egiluvchan va bardoshli bo'lishi lozim. Natijada po'lat cherepitsa zanglashga chidamli va rangning tiniqligi ta'minlanadi. Qoplamalar o'z xususiyatlari, qalinligi va narxlar bo'yicha farqlanadi. Eng keng tarqalgan

qoplamalar quyidagilar qisoblanadi: poliester (RE qalinligi 25-30 mikron), poliuretan (Ri qalinligi 50 mikron) Ammo , mustahkam o'rnatilmagan po'lat cherepitsa yomg'ir va shamol paytida shovqin soladi. Buning uchun tom yopishda maxsus tovushni o'tkazmaydigan qoplama (odatda tovush o'tkazmaydigan qatlamni issiqni o'tkazmaydigan qatlam bilan birlashtirgan holdalar ishlatiladi.

ONDULIN - yapaloq shiferga nisbatan uzoq muddatda foydalanishga mo'ljallangan, 15 yil kafolati va 50 yil foydalanish muddatiga ega tombop ashyo. To'lqinsimon ONDULIN tarkibida sog'liq uchun zararli bo'lgan moddalar yo'q va u faqat ekologik toza ashyolardan tayyorlanadi. ONDULIN tombop ashyo sifatida turli iqlim sharoitlarida nihoyatda chidamli hisoblanadi. ONDULIN tarkibida tosh paxta, mineral bog'lovchilar yo'q, u oson kesiladi va mix qoqanda yorilmaydi dars ketmaydi. U chiqariladi

turli ranglarda ishlab

ko'rinish jihatidan chiroyli hamda jozibali va zararli muhit ta'siriga chidamli ashyodir.

Ondulin chirimaydi, harorat -35°C dan 70°C gacha bo'lganda ham xossalari o'zgarmaydi. U kislotalar, ishqorlar va sanoat gazlarga nisbatan kimyoviy jihatdan bardoshli. Ondulin yengil , oson egiluvchan ashyo bo'lib , eski tombop materialning ustiga ham yopilishi mumkin. Mustahkamligi-60 kg sG`kv.m.

BADIIY-DIZAYN

BO'LIMI

Konsultant: Zoyirov G. A.

(imzo)

Ma'sul rahbar: Borodina M.R.

(imzo)

Bitiruvchi: Bahromova V. Ch.

(imzo)

Binoning badiiy yechimi

Xalq amaliy san'ati galeriyasini loyihalashdan oldin ushbu mavzu yuzasidan ma'lumotlar to'plandi, muzeylar to'g'risida umumiy tushuncha hosil qilindi. Ishni boshlash davomida turli eskizlar tayyorlandi. Bunda xalq amaliy san'ati bo'lganligi sababli amaliy san'atga doir naqsh, uslublardan foydalanishga harakat qilindi. Masalan, paxta gulli naqsh asosida olib ko'rildi. Bir necha eskizlar chizish jarayonida galeriyaga aylana shakl tanlandi. Bino tashqi ko'rinishi uchun oq va och jigarrang tanlandi. Bu ikki rang bino ko'rinishida ajoyib uyg'unlik kasb etgan. Galeriyaning ko'rinishida shu bilan birga milliy holatni paydo qilish maqsadida arkalardan foydalanilgan. Galeriyaga kiraverishdagi zinaning ikki yonida milliy hunarmandchiligida qo'llaniladigan arnamentga o'xshash shakldan bezak berilgan.

Binoning yozgi qismida esa milliy ustunlarimizdan foydalanilgan. Ikkinchi qavat ko'rinishi ham o'zgacha bo'lib, zamonaviylik bilan milliylikni uyg'unlashtirishga harakat qilingan. Galeriyaning eng yuqori qismida esa gumbaz qo'llanilgan. Bino ko'rinida yirik hajmdagi oynalardan ham foydalanilgan.


Galeriyaning ichki interyerida ham milliylikdan foydalanilgan, ayrim qismlarda esa zamonaviylik bilan uyg'unlashtirishga harakat qilingan. Galeriyada bir qancha xalq amaliy hunarmandchilik ustaxonalari mavjud bo'lib, bu yerda hunarmandlar ham ishlab, ham o'z ishlarini namoyish etish imkoniyatiga ega bo'lishadi.

Har bir hunarmand o'z ustaxonasida o'z ishlarini namoyish etishlari mumkin, shu bilan bir qatorda katta ko'rgazma zalida ham ko'rgazma tashkillashtirishlari ham mumkin.

Galeriyadagi ayrim hunarmandchilikka oid ma'lumotlar:

Zargarlik

O'zbek xalq amaliy san'ati turlari ichida zeb-ziynat san'ati bo'lmish zargarlik alohida o'rin egallaydi.



Musulmonlarda feruza, marvarid, zumrad va boshqa toshli zargarlik buyumlari nihoyatda qardlangan. Chunki ular inson uchun faqat bezak buyumlari bo'lib qolmay, balki sog'liq uchun, inson ruhiyati uchun ijobiy ta'sir etgan. Masalan, marvarid inson organizmini mustahkamlaydi, yurakdagi tushkunlik va iztirobni haydaydi, ko'z qobiliyatini oshiradi, jinlardan saqlaydi, og'izdagi qo'lansa hidlarni yo'qotadi, oshqozondagi va jigardagi toshlarni maydalaydi, shamollash, bavoil va boshqalarni tuzatadi. Feruza esa uni qudratli tumor sifatida taqilgan, oshqozon va ko'z kasalligiga shifobaxsh, ta'sir etgan, ilon chaqqanida eng yaxshi davo hisoblangan. Shuning uchun qadimda kelinlar kiymiga feruza taqishgan. Sadaf Sharqda ham, Yevropada ham yuqori baholangan. Undan to'g'nag'ich, baldoq, marjonlar, ilma tugmalar yasalgan. U taqqan kishini ajin hamda sepkillardan asragan, zehnni ravshan qilgan, kishini bardam, ruhiyatini ko'targan.

Xalsedondan o'tmishda marjonlar, uzuk, to'g'nag'ichlar, bilak- uzuk va boshqalar yasilib, u go'yo odamlarni qahru-g'azab, g'amu-anduhdan asragan.

O'zbek zargarligi juda qadimiy tarixga ega. Unga ibtidoiy jamoa tuzumi davri asos solingan. Eramizgacha bo'lgan I asrdan boshlab eramizning VIII asrigacha Ayritom, Afrosiyob, Dalvarzintepa, Xolchayon, Bolaliktepada chiroyli haykallar, devor bezaklari orqali zargarlik san'ati rivojlanganligini ko'rish mumkin.

Tosh asrining so'ngi davri neolitdayoq (eramigacha IV-III ming yillikning oxirida) shildiroq, munchoqlr, har xil toshlar, chig'anoq, hamda suyaklardan yasalgan bezaklar topilgan. Bu esa zargarlikni rivojlanganligan dalolat beradi. Ikki daryo oralig'ida joylashgan Yunonistonda ajoyib va qimmatbaho zargarlik buymlari ishlangan. Mis davriga to'g'nag'ich, zirak, baldoq, bilak-uzuk, shildiroq vaboshqalar metallardan, hattoki oltindan ishlanadigan bo'ldi.

Xorazmdagi Tuproqqal'a devorlaridagi tasvirlardan o'sha davrlardagi ayollar quloqlariga nafis zirak taqqanliklari ma'lum bo'lgan (bu tasvir III asrga taaluqli). Bulardan tashqari bronzadan quyib ishlangan bir qancha osma taqinchoqlar ham topilgan. Bu osma taqinchoqlar I-IV asrga mansub bo'lib Xorazmning Ayozaqal'a, Yetti asar, burgutqal'ava boshqa joylaridan topilgan. IV-V asrlarda zargarlik buyumlari kam ishlangan. Ular tosh, shisha, pastalardan qilingan sher va qurbaqa shaklidagi munchoqlar topilgan. Bolaliktepada topilmada V asr oxiri VI asr boshlarida ishlangan devoriy rasmda ayol kishining qulog'i va barmog'ida zargarlik taqinchonlari tasvirlangan. Afrosiyobdagi VI-VII asrga mansub devoriy rasmda erkak kishining qo'lida sovg'a taqinchoqlarni olib kelayotgani tasvirlangan. Bulardan tashqari ayol sochlarida osma taqinchoqlar osilganligi tasvirlangan.

X-XI asrlard o'rtasida bitta kata teshigi bo'lgan suyakli tugmachalar ko'p ishlangan.

XIV- XV asrlarda zargarlik juda yaxshi rivojlangan bo'lsa-da nimagadir bizgacha juda kam miqdorda saqlanib qolgan. Ba'zi bir yozma manbalarda ko'rsatilishicha XIV asr boshlarida Tojjiiddin zargar Buxoro yaqinidagi Tvans shaxrida yashagani, bulardan tashqari Xusaynning o'g'li Muhammad zargar,XV asrning ikkinchi yarmida yashagan usta Ali zargar, xo'ja Sulton Xusayn zargar, xo'ja Xasan zagar nomlari bizga ma'lum. XVI asrda ishlangan ko'krak bezak zargarlik buyumlari faqat devoriy rasmlar orqali etib kelgan. XIV-XVII asrlarda zargarlik buyumlarining naqsh bezaklari judayam murakkablashib boradi.

XIII-XIV asrlargacha zargarlik buyumlarida ko'pincha hayvonlar tasvirlangan bo'lsa, keyinchalik esa arab yozuvlari kompozitsiyaga kirib o'ziga xos ko'rinish berdi. Bu yozuvlar bir tomondan nash bezagi va ikkinchi tomondan ma'no jihatdan farqlanar edi. XVIIIasrda O'rta Osiyodagi o'zaro ichki urushlar zargarlik san'atining rivojlanishiga salbiy ta'sir etdi. Keyinchalik xonliklar paydo bo'lishi bilan zargarlik yanada rivojlana boshladi. XVIII asrda mo'g'ul bosqinchilaridan so'ng birinchi marta oltin tangalar ishlab chiqarila boshlandi. Zargarlik buyumlari oltindan, kumushdan va boshqalardan ishlandi. Qurol-aslahalar ajoyib qimmatbaho toshlar, shisha, billur, oltin va boshqalar bilan bezatildi. Zargarlar juda yumshoq va yorqin bo'lmagan nefrit va kumushdan,juda yorqin oltin va nefrit kabilarni ishlatdilar.

XIX asr va XX asr boshlarida O'rta Osiyo xonliklari o'rtasida badiiy hunarmandchilik rivojlandi, shular qatori zargarlik ham tez sur'atlar bilan rivojlandi. Ko'pgina shaharlarda masalan, Xiva, Buxoro, Qo'qon, Samarqand, Qarshi, Shahrisabz, Toshkent, Andijon, Urganch, Nurota, Kitob, Chust, Asaka, G'ijduvon, Marg'ilon va boshqa joylarda usta zargarlar bo'lib, ular maxsus mahalla- mahalla bo'lib yashashgan. Shuning uchun zargar (zargaron) mahalla deb yuritilgan. Xivada 1860-yilda 12ta va XX asrning boshlarida Buxoroda 400tacha, Toshkentda esa 100 dan ortiq, Samarqandda 1893-yili 20 dan ortiq zargarlar do'koni bo'lgan. O'sha vaqtda kata shuhrat qozongan zargar ustalardan Qo'qonda usta Mahmud, usta Omon hoji, M.Rahimov, H. Najmiddinov, Namanganda usta Niyoz Ohun, Andijonda usta Oybergan, H.Otaboyev, Toshkentda S. Bobojonov, Ohun Bobojonov, usta Samig'iddin, A.Shoislomov, usta Mirhalil, Urganchda M. Abdullayev, Samarqandda X. Yuldoshev, I.Kolimboyev, V. Hafizov va boshqalar bor edi.

Bezaklar ayollar libosining ko'p qismini egallaydi. Bosh, bo'yin, peshona, ko'krak, qo'ltiq, bel, burun, quloq, chakka va boshqa taqinchoqlarning butun bir kompleksini ishig'ol etdi. Bularning hammasi kelin-kuyovlar libosini to'ldirib, xonadonda to'y, bayram va boshqalarda taqiladi. Ba'zi bir zeb ziynatlar bir umr taqib yuriladi. Zargarlik buyumlari turli- tuman bo'lib, ular o'ziga xos nomlanadi. Peshonaga taqiladiganlari tillaqosh, boliabro', bargak, quloqqa zirak, boshga tagdo'zi, sanchoq, oltin tumor, ko'krak bezagiga murg'ak, zebigardon, tumorcha, soch bezaklari, sochpopuk, zulfi tilla, osma bezak, gajak, butun tirnoq, yarim tirnoq, qo'sh duo, burun bezagi, arabak, yuz bezagi xolbinni, bo'yin bezagi bo'yintumor, bozband, bel bezagi kamar, qo'l bezagi bilaguzuk, barmoq bezaklari uzuk va boshqalar kiradi.

Turfa soch bezaklari qizlar kiyim boshida muhim o'rin tutgan. Shulardan sochpopuk, yumaloq, tuf va boshqalar kiradi.

Sochpopuk – soch bezak tularidan biridir. Ayollar sochlariga taqadigan zargarlik bezagi. Bu bezak qora ipakdan eshilgan, uchlari popukdan 15-20ta chiyratma ip bo'ladi. Bu iplarga kumushdan quyma g'uppa, qo'ng'iroqcha va naycha shaklidagi yana boshqa taqinchoqlar taqiladi. Sochpopuk turli shakllardan iborat bo'lib, uni turli nom bilan yuritiladi. Andijonda sochpopuk, bekakul sochpopuk, Namanganda esa kakulli sochpopuk, po'r sochpopuk yoki balig'og'iz, panjarali sochpopuk turlari bor. Qo'qonda qubba sochpopuk yoki kata sochpopuk Namanganda kartnoma, kartnoma bo'rdak, naycha, kartnoma, kata qubba, kata g'ubba va boshqa turlari bo'ladi.


Bilakuzuk- bilak bezagi (dastpona), oltin, kumush yoki misdan yasaladi. U ayollar taqadigan zargarlik buyumi bo'lib, uning bodomcha bilakuzuk, yapaloq bnalakuzuk, ilonboshi bilakuzuk, rosmena bilakuzuk, baqatosh bilakuzuk, kichik

bilakuzuk va boshqa turlari bor. Bilakuzuklar quyish va bolg'acha bilan urib ishlash usuli bilan ishlanadi. Metallni bo'tada eritib, taganak quyib yasalgani quyma bilakuzuk deb yuritiladi. Metallni bo'tada eritib, qolibga quyib sovutib, so'ng bolg'a bilan urib, yorib ishlangani suqma bilakuzuk, yozma yoki yorma bilakuzuk deb yuritiladi. Bilakuzukni marjonlardan shoda qilib tayyorlangani puncha deyiladi. Asosan chaqaloq va qizchalarning bilagiga taqiladi. Bilakuzuk panjarali, o'ymali, har xil toshlarni yopishtirib ishlanadi. Bilakuzuklar kumush, tilla, mis va munchoqlardan yasaladi. Uning tutashgan hamda tutashmagan turlari bo'ladi.



Peshona bezaklari XIX asr oxiri va XX asr boshlarida zeb-ziynatlar asosini tashkil etadi. Toshkent, Samarqand, Farg'ona vodiysida tillaqosh, Buxoroda boloabro' va tilla bargak rasm bo'lgan. Qosh tepasidagi uchburchak shaklidagi yupqa metallga feruza hamda rangli shishalar qadalgan bo'ladi. Bargakni tag qismida esa bir talay bargak yaproqchalar osib qo'yiladi. Bu yaproqchalar pirpirab ajoyib ko'rinish beradi. Peshona bezagi boloabro' tillaqoshga o'xshaydi. Shunga o'xshash peshona bezaklari O'rta Osiyoni boshqa metallardan qisman o'zgarishlar bilan tarqalgan. Peshona bezaklaridan biri Gajak ham ko'p tarqalgan.

Tillaqosh-zargarlikda peshona bezaklaridan biri ayollar peshonasiga taqadigan bezak. Uni Farg'onada tilla bargak deb yuritiladi. Tillaqosh yupqa tilla halqa yuritilgan kumush plastinkadan yasaladi. Tuzilishi jihatdan 2 qismdan iborat bo'lib, juda chiroyli qilib bezaladi. Ularni tutash joyida la'l (yoqut) bo'lib, keyinchalik shakli biroz o'zgarib ketgan. Unga havorang munchoq (marjon) hamda har xil toshlar o'rnatiladi. Tillaqoshning pastki qismlariga donacha shingilalar, zig'irak va marvaridlar osilgan bo'ladi.



Bargak- zargarlikda peshona bezak turlaridan biri, ayniqsa XIX asr oxiri va XX asr boshlarida zeb - ziynatlarni asosini tashkil etadi. Uni sharq ayollari peshonasiga taqadi. Uning tilla bargak, kumush bargak va boshqa turlari bor.

Bo'yin- ko'krak zeb- ziynatlari turli-tuman. Ular bosh zeb-ziynatlariga qo'shimcha bo'ladi. U kiyim-kechakning yaxlidligini ta'minlaydi. Kambag'allar orasida XIX asrda marjon shodalarini to'qish odat tusiga kirib, asrimiz boshlarida kumush tangalardan zeb berish ommalashgan edi. Zarxal berilgan kumush tangasini boy xotin- qizlar taqar edilar. Samarqandda murg'ak shodasi taqish, Samarqand, Toshkent, Farg'ona vodiysida "Zebigardon", Buxoroda "Nozigardon" dan keng foydalanadilar. Bulardan tashqari kumushdan yasalgan "tumor" turlari bor. Uchburchak shaklidagi yirigi ko'krak tumor hamda uchburchak shaklidagi "bo'yin tumor" deb yuritiladi.

Tumor- tumorcha, zargarlikda zeb-ziynatlarning bir turi bo'lib, ayollar bo'yin va qo'ltiqlariga taqadigan bezak. U uchburchak shaklida, ba'zan tilla yoki tilla halqa yuritilgan kumushdan yasaladi. Keyingi vaqtlarda u to'rtburchak shaklida yasalyapti. Tumor 2 qismdan iborat bo'lib, old tomondan qopqoq bo'lib, u juda chiroyli qilib bezaladi. Orqa tomoni qutichdir. Tumorning bo'yiga solinadigani zanjira bo'lib, kichkinasi bo'yiga solinadi. Uni bo'yintumor, qo'ltiqqa taqiladigani qo'ltiq tumor deb yuritiladi. Qo'ltiq tumorini qo'qonliklar bozvant deb yuritadilar. Duo yozilgan qog'ozni buklab charm yoki biror materialga o'rab tikiladi, bu ham tumor deyiladi.

Qadimdan tumorchalarni taqib yurishdan maqsad ham bezak ham xurofiy tasavvurga ko'ra, tumor taqqan kishi go'yo omadli, turli ofat, balo-qazolardan, yomon ko'zdan saqlaydigan narsa deb tushunilgan.



Zebigardon- forsha-tojikcha bo'yin bezagi degan ma'noni beradi. U ayollar taqinchog'i, ziynat buyumi bo'lib, bo'yinga taqiladi. Zebigardon halqacha, sadaf, munchoq, marjonlarni bir-biriga biriktirib yasaladi. Huqqalar (medalyon) qimmatbaho toshlar bilan bezatilgan bo'ladi.

Halqa-zirak, quloq bezaklaridan bo'lib, u ayollarning har kuni qulog'iga taqadigan bezak buyumidir.

Gajak- (forsha-tojikcha jingalak) ayollar taqinchog'i. u ko'pincha tilla, kumush yoki tilla halqa yuritilgan kumush plastinkachalaridan tayyorlanadi. Zargarlar ko'pincha unga la'l, zumrad, yoqut toshlar qarab bezaydilar. Ustalar qadama toshlar atrofiga chiltor va girdak qo'yib bezaydilar. U sadaf, dur, tillahalqa yuritilgan kumush zig'iraklardan yasaladi. Gajaklar shakli va ishlanish usuliga qarab turlicha bo'ladi. Yarim oy, bodom bargi, qo'sh gajaksimon shakldagilari Samarqand va Buxoro viloyatlarida, bodom shakldagisi Farg'ona vodiysida va Toshkentda keng tarqalgan.







KASHTACHILIK SAN'ATI TARIXI

O'zbek milliy kashtachiligi (kashtado'zlik) amaliy san'atning eng qadimiy turlaridan bo'lib, u xalqning o'z turmushini go'zal qilish istagi natijasida yuzaga kelgan. Kashtachilik san'ati nafaqat mamlakatimizda, balki chet ellarda ham shuhrat qozongan. O'zbek xalq ustalari qo'llari bilan tikkan kirpech, so'zana, zardevor, gulko'rpa, choyshab kabilar Germaniya Federativ Respublikasi, Belgiya, AQSh, Hindiston, Afg'oniston kabi xorijiy, shuningdek, mamlakatimizning Farg'ona vodiysida faqat xonadonlarda emas, balki muzeylarda doimiy ekspozitsiyaga aylanib qolgan. Hozirgacha buyumlar o'ziga xos go'zallik, nafis bezaklarning rang-barangligi bilan kishilarni hayratga solib kelmoqda. Badiiy kashtachilik uzoq tarixga ega, buni arxeologik topilmalar va yozma manbalar isbotlab bermoqda. O'zbek kashtachiligi iqlim, tabiiy sharoit, muhit bilan bog'liq holda barcha kasb-hunarlar bilan birgalikda rivoj topgan.

Kashtachilik san'atining eng qadimiysi saqlanmagan. XIV-XV asrlarga mansub miniatyuralar orqali kashtachilikning juda qadimdan rivojlanganligini ko'rish mumkin. Ispan elchisi Ruyi Gansales de Klavixo Amir Temur saroyida o'zbek milliy kashta bezaklarini ko'rganini kundaligida yozib qoldirgan. 1467- yili Kamoliddin Behzod "Zafarnoma"ga ishlagan "Temir taxtda" miniatyurasida chodirga ishlangan kashtani ham aks ettirgan. XIX asrning ikkinchi yarmida kashta tikish mashinasining ixtiro etilishi

kashtachilik korxonalarining vujudga kelishiga asos soldi. Mashinada kashtalarning ko'p ishlab chiqarilishi ularning badiiyligiga putur yetkazdi. Qo'l kashtalari unutila boshlandi. Lekin ayrim xillarigina saqlanib qoldi. O'zbek kashtachiligi qo'shni xalqlar kashtachiligi ta'sirida boyida va rivojlandi. O'zbek kashtalariga nazar solsak, unda Hind, Xitoy, Rus, Afg'on, Qozoq, Qirg'iz va Tojik kashtachiliklarining usul va uslublari uchramiz.

Bu san'atda har bir millatning o'ziga xos eng ko'p qo'llaydigan naqshlari bo'ladi. Chunonchi o'zbek kashtalarida o'simliksimon, geometrik hamda gul naqshlari ko'p bo'lsa, rus kashtachiligida geometrik, o'simliksimon shakllar, gullar, qush va mevalar ko'p tasvirlanadi.

Qozoq va Qirg'iz kashtachiligida esa hayvonlar, shox va tuyoqlarni eslatuvchilar tasvirlanadi.

Qadimiy an'analarga ko'ra, o'zbek qizlari bo'lajak kelinchaklar seplari — har xil kashtachilik buyumlarini o'zlari tayyorlashlari lozim edi. Kashtalar qanchalik nozik, chiroyli bo'lsa, qayliq shunchalik yuqori baholanar edi. Qizlar 7—9 yoshidan boshlab kashta tikishga o'rgatilardi. Ular uch, to'rt yildan keyin mustaqil tika boshlaydilar. Yetishib chiqqan kashtachilar o'zining san'ati va tabiatiga ko'ra go'zallik haqidagi orzularini ifodalashga harakat qilganlar.

Kashtachilikning muhim turlaridan biri zardo'zlikdir.

Zardo'zlik — zar ip bilan kashta tikish kasbi bo'lib, O'zbekistonda, ayniqsa Buxoro tarqalgan. Zardo'zi usulida tayyorlanga kashtalarda oltin, kumush rangdagi ipak hamda ipak va tolalardan foydalaniladi.

Kashtachilikning maxsus turlaridan applikatsiyadir.

Applikatsiya — lotincha yopishtirish degan ma'noni bildirib, gazlama, qog'oz va boshqa materiallarga rang-barang gazlama, qog'oz bo'laklarini yopishtirish yoki tikish yo'li bilan bezash demakdir. Applikatsiya kashtado'zlikning maxsus turi bo'lib, u o'ziga xos texnologiyaga ega. Asosiy matoga rangdor mato parchasini, charm va boshqalarni qadab, atrofi choklanadi. Applikatsiyada ko'pincha izma choklardan foydalaniladi. Kashtaning bu turi O'zbekistonda yaxshi rivojlanmagan. Hozirgi vaqtda ko'pincha bolalar paltolariga, ko'ylaklariga, bosh kiyimlariga qush, meva, gul va hayvonlar tasviri applikatsiya usulida choklanadi. Ayrim hollarda ayollarning kiyimlari shu usulda bezatilyapti.

Arxitektura va biror buyumlarni bezashda applikatsiya usulidan keng foydalanib kelinmoqda.

KASHTACHILIKDA BEZAK BUYUMLARI TURLARI

O'rta Osiyoda kashtachilik juda keng tarqalgan bo'lib, oilada har bir ayol kashta tikishni kerak bo'lgan. Shuning uchun har bir oila o'zi uchun kirpech, so'zana, dorpech, oynaxalta, choyxalta boshqalarni o'zi tayyorlagan. Bezak buyumlarining turi juda ko'p masalan, so'zana, kirpech, choyshab, oynaxalta, choy xalta, zardevor, palak, gulko'rpa, dorpech, bug'jama, parda, belbog', takyapo'sh ya'ni yostiq ustiga yopiladigan, do'ppi, ko'ylak, dastro'mol, hamyon, joynamoz, sumka, nimcha, maxsikavush, xaltacha va boshqalar badiiy did bilan bezatilgan. O'tmishda bu kashtalar oq va malla matolarga tikilgan. Keyinchalik satin, shoyi

baxmalga tikiladigan bo'ldi. Kashtachilikda ishlatiladigan bezak buyum turlari bilan tanishib chiqamiz.

Do'ppi — O'zbekistonda keng tarqalgan yengil bosh kiyim . Do'ppi kiyish dastlab Eronda va turkiy xalqlar o'rtasida, Rossiyada esa XIII asrda rasm bo'lgan. Asrlar davomida do'ppining turli xillari vujudga kelgan. Baxmalga, satinga, sidirg'a shoyiga ip, ipak va zar bilan do'ppi gullari tikilgan. O'zbekistonda, Toshkent, Chust, Buxoro, Samarqand, Boysun, Shahrisabz do'ppilari mashhur bo'lib, ular o'ziga xosdir. Mamlakatimizning barcha viloyatlarida do'ppi tikiladi. Uning Iroqi, Chust do'ppi, Gilam do'ppi, Chakma to'r, qizil gul, Piltado'zi, Zardo'ppi, To'ldirma deb nomlanadigan milliy do'ppilar bor. Har bir do'ppi yaratilish uslubiga ega bo'lib, ular bir- biridan farq qiladi. O'zbekistonda ommaviy bosh kiyimi asosan uch xil shaklga ega bo'ladi. «Kuloh», «araqchin», «tusdo'ppi».



Kuloh — konussimon bosh kiyim. U asosan darveshlar qalpog'i. Uning matohi toq uchburchak parchalaridan bichilib yonlamasiga tikiladi. Kuloh (erkaklar bosh kiyimi) hozir juda kam uchraydi.

Araqchin — sharsimon do'ppi, uni asosan keksalar kiyadi. Toshkentda sharsimon do'ppilar kanda xayol, bosma, chakmato'r, iroqi chok usullarida tikiladi.

Tus do'ppi — Keng tarqalgan yassi yuzali do'ppi. Ko'pincha tus do'ppi chust do'ppi deb yuritiladi. Tus do'ppilarning birgina klassik variantining o'zida sakkizta yuvelir chok uslubi qo'llaniladi. Masalan, zanjira, to'g'ri chok, chita, kungura, etalatma, taroq, ova, pildiroq. Chust do'ppisining tepasiga kizakdan kvadrat shaklida bo'rtib chiqib, yarim shar ko'rinishida bo'ladi. Toshkent do'ppisi sidirg'a

baxmaldan (gulsiz) tikilgan bo'ladi. Buxoro do'ppilari sidirg'a yoki gulli baxmaldan jiyakli qilib tikiladi, jiyagi turli xil ipaklardan rangdor naqshli yo'rma usulida tikilgan bo'ladi.

Joynamoz — erga solib ustida namoz o'qiydigan to'shama. Islom diniga e'tiqod qiluvchilar ishlatishadi. U ibodat vaqtida kishini bu dunyodan ajratuvchi omil deb tasavvur qilinadi. Joynamoz har xil matodan tayyorlanib, uning uch tomoni mehrob shaklida tikilgan bo'ladi. Undan machit, madrasa va uylarda foydalaniladi. U turli o'lchamda bo'ladi. Ibodatni kanda qilmaslik uchun boshqa narsalardan foydalanish mumkin. Masalan, chopon, qiyiqcha, sholcha kabilardan, chunki ular diniy nuqtai nazardan pok hisoblanadi. Joynamoz kashtachilikda juda chiroyli qilib bezatilgan bo'ladi.

Zardevor — uy jihozi, u sidirg'a shoyi baxmal, satinga kashta tikib bezatilgan badiiy buyum. Zardevor o'zbek hamda tojiklarda yangi tushgan kelinning uyiga, shiftiga yoki devoriga ilib qo'yiladi. U zar ip yoki ipak gajimli bo'lib, eni 40—70 sm, uzunligi mo'ljallangan uyning devoriga moslab tikiladi. Palak — devorlarga ilinadigan eng yirik, eng qimmat bezak buyumlaridan biri. Palakda osmon va to'lin oy aks ettiriladi. Uni qadimda oq yoki malla bo'zga kashta tikib tayyorlangan. U so'zanadan gullarining yirikligi, zaminiga ham kashta qoplanishi bilan farq qiladi. Palakni o'rtasida yirik oy tasviri qizil qirmizi, pushti ipak bilan kashtalanadi va atrofiga juda chiroyli qilib o'simliksimon naqshlar tikiladi. Naqshlar ichida ko'pincha bodom, qalampir elementlari qo'llaniladi. Palakda qirqtacha oy ham tasvirlash mumkin, shuning uchun oyini soniga qarab olti oyli palak, o'n ikki oyli palak, hattoki katta uylar uchun qirq oyli palak tikilgani bizga ma'lum. Oylar turli ranglar bilan bir necha xil tasvirlangan. Mashhur kashtado'zlar ba'zida oyni ajoyib naqshlar bilan bezab, o'z mahoratlarini namoyon etganlar. Agar oyni ichi sidirg'a rangda ifodalangan bo'lsa, uni oypalak, agar naqshli bo'lsa g'ulpalak va hokazo nomlar bilan yuritiladi. Keyingi vaqtlarda palakni qo'l mehnati ko'p bo'lgani uchun so'zana deyila boshladi. Lekin hozir palakni qo'lda tikishga katta ahamiyat berilmoqda.

Kirpech — kirpo'sh, tokchaga taxlab qo'yilgan kiyim-kechak ustidan yoki devorni vertikal bo'sh joylariga ilib, uyni bezatib turishi uchun ishlatiladigan badiiy buyum. Kirpech kashtalari qo'lda yoki mashinada tikiladi. Kirpech qo'lda ilma kashta bilan bezaladi. U kiyim-kechakni changdan saqlaydi va uyni bezab turadi. Odatda, palakka o'xshatib tikilgani kirpechpalak deb yuritiladi. Bu turi ham keng ishlatiladi.

So'zana — forscha so'zani deb ham yuritiladi, igna bilan tikilgan degan ma'noni beradi. So'zana matoga kashta tikib tayyorlangan badiiy buyum bo'lib, xonani bezatish uchun devorga ilib qo'yiladi. U satin, baxmal, shoyi va boshqa matolarga kashta tikib tayyorlanadi. U o'ziga xos badiiy ko'rinishga ega. Matoning rangidan ustalarimiz kashta zamini sifatida foydalanadilar. Shuning uchun palakdan farq qiladi. So'zana har bir xonadonda bo'lgan, chunki bir qiz turmushga chiqishidan oldin o'zi uchun so'zana tayyorlagan. So'zana kelinlarning sepi hisoblangan.

Kambag'al oilada so'zanani malla, oq bo'zdan, badavlatroqlarida esa shoyidan, baxmaldan tikishgan. So'zana uchun kompozitsion joylashgan o'simliksimon naqshlardan foydalaniladi. So'zana o'rtasida ko'pincha doirasimon gul tikilib atrofi guldor islimiy naqshlar bilan bezatiladi. So'zana tikish juda qadimdan rivojlangan bo'lib XIX asrgacha bo'lgan so'zanalar saqlanmagan. Faqat XIX asrga oid Samarqand, Buxoro, Nurota, Farg'ona, O'ratepa, Shahrisabz, Toshkent, Farg'ona va boshqa joylardagi so'zana turlaridan namunalar bor. San'atning bu turi ayniqsa O'zbekiston va Tojikiston territoriyasida qadimdan keng tarqalgan. Keyingi paytlarda 40 yillardan boshlab so'zana mashinada tikilib kelmoqda.



KASHTA TIKISH TEXNOLOGIYASI

Kashta — turli rangdagi ipak, mulina, zar ip bilan igna, ilmoqli bigizda har xil matoga mashinada gul tikishdir. Kashta har xil kiyimlarga, ro'zg'or buyumlariga tikiladi. Kashtachilikda mato, kigiz, charm, karton, zig'ir, jun, ipak, sun'iy iplar, zar iplar, mayin sim, xom charmdan tayyorlangan tasmalar, munchoq, marjon, metall pulakcha, qimmatbaho tabiiy va sun'iy toshlar, shishadan tayyorlangan munchoqlar va boshqa materiallar ishlatiladi. Kashtachilikda o'ziga xos ish qurollari mavjud bo'lib, ular o'ziga xos operatsiyani bajaradi. Kashtachilikda ignalar, ilmoqli va ilmoqsiz bigizlar, to'gnag'ich, angishvona, qaychi hamda chambaraklar ishlatiladi.

ZARDO'ZLIK SAN'ATI TARIXI

Zardo'zlik — hunarmandchilikning qadimiy turlaridan biri zar ip bilan naqsh (kashta) tikish kasbi. U forscha zar (tilla), do'zi (tikmoq) so'zini anglatadi.

Zardo'zlik san'ati uzoq tarixga ega. Zardo'zlikning vatani Vavilon bo'lib, u Rim imperiyasiga qarashli bo'lgach, zar, ipak va jun ip qo'shib tikilgan rang-barang kashtachiligi bilan butun dunyoga mashhur bo'lgan. Vizantiyada zardo'zi kiyim-kechaklarni faqat imperator a'yonlari, aslzodalar kiyishgan. Vizantiya bilan muntazam madaniyat hamda siyosiy hamkorlik qilishi tufayli zardo'zlik san'ati Eron podsholigi saroyida ham rivoj topgan. Eronda zardo'zlik san'atining rivojlanganligiga XV—XVII asrda ishlangan zardo'zlik namunalari misol bo'la oladi. Vizantiyadan qadimgi Rusga ham zardo'zlik san'ati kirib keldi. Kichik Osiyo doirasida zardo'zlik XIII va XV asrlarda ham rivojlandi. Xullas Vizantiya qayerga ta'sirini o'tkazgan bo'lsa o'sha yerda zardo'zlik rivojlangan.

O'rta Osiyoda zardo'zlik juda qadimdan rivojlanib kelayotgan xalq amaliy san'ati turlaridan biridir. Arxeologik topilmalar va tarixiy manbalardan ma'lumki, O'rta Osiyo xalqlari orasida qadimdan I—II asrlarda zarbof kiyimlar, badiiy buyumlar keng tarqalgan. 1947- yili Toshkent viloyatining Vrevskiy qishlog'ida o'tkazilgan arxeologik topilmada ayol qabridan I—II asrlarga tegishli zarbof kiyimlar topilgan.

Abdurazzoq Samarqandiy «Hindiston safarnomasi» asarida 1442 yili Shohrux zamonida Shimoliy Hindiston bilan Hirot o'rtasida turgan elchilarning sovg'alari orasida zarbof kiyimlar bo'lganligini aytib o'tgan. 1465- yili «Ashratxona» maqbarasi haqidagi hujjatlarda zarbof kiyimlar haqida bayon etib o'tgan. Hirotda yashab ijod etgan Vasfiy o'zining risolalarida zarbof kiyimlar va zardo'zlik kasbi to'g'risida bayon etgan.



Bu ustalarning ko'pchiligi ota-bobosidan meros bo'lgan kasbi saroy ahllari uchun kamzul, chakmon, chalvor, poyafzal, belbog', salla, quloq va jul tikishdir .

Bu kiyimlar xon buyurtmasi yoki yaqinlari tomonidan bironta oilaviy tantana yoki bayram munosabati bilan tayyorlash buyuriladi. Hech kim, hatto eng katta amaldorlardan birortasi ham yuqorida aytib o'tilgan kiyimlardan hech birini o'ziga buyurtirishga haqi yo'q edi, ular zarbof kiyimlarni amir sovg'a qilgandagina kiyishlari mumkin edi. Ayollar va bolalarning zardo'zi kiyimlari faqat badavlat xonadonlarning an'analaridagina kiyilgan, kiyimlarni ular bironta oilaviy tantana yoki bayram munosabati bilan kiyishgan. Boy xonadonlarning 8—10 yoshdan katta bo'lmagan o'g'il bolalariga sunnat to'yi munosabati bilan zarbof to'n kiydirishgan.

XIX—XX asr boshlarida Buxoroda hukmronlik qilgan mang'itlarning oxirgi sulolasiga taalluqli zarbof kiyimlar yagona yodgorliklari nusxasi hisoblanadi. 1800—1826 yillarda Haydarxon podsho zamonasida ishlangan zardo'zi maxsi (1810 yilda ishlangan) saqlanib qolgan. 1827—1860 yillarda Amir Nasrulloxondan juda ko'p zarbof kiyimlar saqlanib qolgan. 1895- yildan 1911- yilgacha hukmronlik qilgan Abdulahadxonga mansub juda ko'p zardo'zlik kiyimlar ko'p saqlanib, o'sha davr zardo'zlik san'ati gullab yashnagan davr hisoblanadi. O'rta Osiyoda zar-do'zlar boshqa hunarmandchilik kabi maxsus tashkilotga uyushgan edi. O'sha vaqtda Buxoroda 350 ga yaqin zardo'z ustalar bo'lgan. Ular ustidan nazorat qilib

turadigan maxsus tashkilot bo'lgan. Sex ustaviga o'xshash risolalari bo'lib, u diniy rasm-rusumlarga hamda urf-odatlarga amal qilishni talab etar edi. Zardo'zlarning ko'pchiligi tevarak-atrofdagi guzarlarga yaqin joylarda yashar edilar. Shaharlarda bozorbop buyumlar tayyorlaydigan ustaxonalarining katta qismi aynan guzarda joylashgan edi. Maxsus tashkil etilgan tashkilotga amirning saroy ustalaridan tashqari yollanib ishlaydigan xususiy ustalar — xalfalar ham kirar edi.



NAQQOSHLIK SAN'ATI TARIXI

O'rta Osiyo naqqoshlik san'ati qadimdan butun dunyoga mashhur. O'tmishda ota-bobolarimiz qurgan muhtasham binolar hozirgi kungacha maftunkor jilvasini yo'qotmagan. Yuksak did bilan ishlangan naqshlar bizni hayratga solib kelmoqda.

Milliy naqshlarimiz g'oyatda boy mazmunga ega. Oddiy qoshiq, lagan, quticha, sandiq, belanchak, cholg'u asboblari, uy-ro'zg'or buyumlaridan tortib turar joy va jamoat binolarining devor hamda shiftlariga solingan naqshlar insonni hayratga soladi, uni o'ylantiradi. Bu go'zal naqshlar ajoyib naqqoshlar tomonidan yaratilgan bo'lib, asrlar davomida bunyod topdi, rivojlandi, me'morchilik hamda tasviriy san'at rivoji bilan bog'langan holda takomillashib bordi.

Naqsh — arabcha tasvir, gul degan ma'noni anglatadi. Qush, hayvon, o'simlik, geometrik va boshqa elementlarni ma'lum tartibda takrorlanishidan hosil qilingan bezakdir. Ganchkorlik, kandakorlik, kashtado'zlikda, zardo'zlik, kulolchilik, zargarlik, gilam to'qish, to'qimachilik, inkurustatsiya¹, panjaralar va hokazolarda har xil yo'llar bilan naqshlar ishlanadi. Masalan, o'yib, chizib, chok yordamida, zarb bilan, qadab va boshqa usullarda naqsh solinadi. Naqqoshlik san'ati tarixi insoniyat madaniyati bilan bir qatorda qadimiydir. Madaniyatning rivojlanishi natijasida rassomlik va naqqoshlik ajralib chiqdi hamda rivojlandi. Har xil arxeologik qazilmalar shuni ko'rsatadiki, naqqoshlik jahondagi barcha xalqlarda qadimdan mavjud ekanligi bizga ma'lum bo'ldi. Chunonchi, Xitoyda, Qadimiy Eronda, Hindistonda va boshqa joylarda naqshning har xil turlarini ko'rish mumkin. Naqqoshlik har bir davlatning o'ziga xos muhitiga: geografik o'lkaning o'simlik dunyosiga ko'ra rivoj topdi. Masalan, arman va gruzinlarda uzum va uzum bargi, shimol xalqlarida archa va har xil hayvonlar, qirg'iz va qozoqlarda mol shoxi, tojiklar va o'zbek xalqlarining naqshlariga qarasak anor, bodom, gullar, qalampir va boshqalarni ramziy naqsh tariqasida ishlatilganligini ko'rasiz. Yevropada barokko, gotika, roman, klassitsizm uslublari har xil davrlarda hukmron bo'ldi. Bu esa o'z-o'zidan naqqoshlik san'atining rivojlanishiga ta'sir etdi.

O'zbekiston territoriyasidagi arxeologik qazilmalardan Xorazm, So'g'd, Baqtriya va boshqa viloyatlarda naqsh san'atining rivojlanganligi ma'lum. Olimlarimiz Surxondaryo viloyatidagi Fayoztepa (I — II asr), Dalvarzintepa (I asr budda ibodatxonalari qazilmalaridan topilgan rasm, naqsh qoldiqlari orqali isbotlab berganlar. Xorazmdagi Tuproqqal'a zallari monumenttal naqshlar bilan bezatilganligi bizga ma'lum,

VI—VII asrlarda ibodatxonalar, qasrlar va boylarning uylari o'yma naqshlar hamda tasvirlar bilan bezatilgan. Tantanali marosimlarga mo'ljallangan xonalardagi dabdabali ajoyib naqsh, rasmlarni ko'rib hayron bo'ladi kishi Ularning birini qarasangiz devorlarda bazmi jamshid, ov, rasmlar urishi, manzaralar hamda diniy rasmlar tasvirlangan. Jonli mahluqlar qizil va ko'k ranglar bilan bo'yab tasvirlangan,

VII asrning oxiri VIII asrning boshlarida O'rta Osiyoni arablar bosib olishi natijasida qaror topgan islom dini o'zidan oldingi madaniyatning ildiziga bolta urdi. Yangi din hamda yangi g'oya O'rta Osiyo tasviriy san'atiga ta'sirini o'tkazdi. Jonli mavjudotlarni aks etdirish man etildi. «Keyinchalik yuzaga kelgan diniy sharhlar va hodisalar ko'proq murosasiz yo'l tuta borib, qat'iy ravishda shunday der edi: «Tangri yoki odamzod suvratini chizishdan tiyiling, faqatgina daraxtlar, gullar va jonsiz mavjudotlarning rasmini soling, aks holda bu qoidani buzgan kishi gunoqi azim qilgan bo'ladi», deb qo'rqitilgan. Jonli mavjudotlar suvratini chizish man etilishining ma'nosi shundaki, xudodan boshqa hech kim biror narsa yaratish u yoqda tursin, hatto Xudo yaratgan narsani qayta gavdalantirishi ham mumkin emas va bu uning qo'lidan kelmaydi, aks holda musavvir Xudo bilan bas boylashib, uning irodasiga shak keltirgan bo'ladi».

Islom talablariga bo'ysunish oqibatida jonivorlar, parrandalar va odamlarni tasvirlash yo'qolib borib naqqoshlik rivoj topdi. Arab yozuvi o'zlashtirildi. Natijada naqshlar bilan unvonli yozuv (epigrafika) uslubi paydo bo'ldi. Arab yozuvi naqshlar bilan birga chizildi. Arab yozuvi ham bezak, ham duo-afsunlar vazifasini bajardi. Xullas tasviriy san'at rivojlanmaydi. Buning hisobiga xalq amaliy bezak san'ati naqqoshlik hisobiga rivoj topdi. IX—X asrlarda O'rta Osiyoda naqqoshlik san'ati avj olib rivojlandi. Arxitektura g'isht qalab naqsh solish yuksak darajada rivojlandi, binolarning ichki tomoniga ganch, yog'och o'ymakorligini qo'llash yuksak rivoj topdi. Ayniqsa maqbaralarning peshtoqlari devor va ravoqlar ganch-naqshlar bilan juda nafis bezatiladi. Naqshlar murakkablashib bordi. Ularning yangi nusxalarida ramz, tasvirlar, timsol, duo-afsunlar, tasbiq va boshqalar naqadar mo'lligini ko'ramiz. Ramziy naqshlar dunyoda sodir bo'layotgan voqeliklar, tilaklarni aks ettirgan. Har bir chizilgan naqshda o'ziga xos ma'no bo'lgan. Chunonchi, o'simliksimon naqsh gulsapsarni olaylik, u osoyishtalik va umr uzoqlik timsoli «pechak islamiy» naqshi boylik va farovonlikni, novda va yaproqlar esa to'kinchilik hamda bahor chog'ida uyg'onishni bildiradi. Musavvirning tasvirlari bu uning ona tabiatga bo'lgan muhabbatini bildiradi. Uning ranglari o'ziga xos ma'no va harakterga ega. Naqsh o'zbek madaniyatining hamma bosqichlarida hamroh bo'lib kelgan. Eng oddiy printsiplari bir-biriga mutanosiblik, uyg'unlik, yo'sin va usullarini ajoyib qayta-qayta takrorlashuvidir. Xalq naqqoshlari naqshlarning har bir detaliga alohida e'tibor berib, uning tabiiyligini yo'qotmaganlar, har bir element ustida puxta fikr yuritganlar. Har bir naqsh negizida ma'lum ramziy ma'no singdirilgan. XI—XII asrlarda O'zbekiston territoriyasida arxeologik topilmalar shuni ko'rsatadiki, naqshlar ichida geometrik naqsh ko'p ishlatilgan.

Girih— forscha, chigal, tugun degan ma'noni beradi. Xandasiy naqsh — to'rtburchak, uchburchak va boshqa elementlardan tashkil topgan geometrik murakkab naqsh turi. Girih to'g'ri, egri va aralash chiziqlarga bo'ysundirilgan bo'lib, o'ziga xos shartlilikka ega. Bu naqsh turining keng tarqalishi bezak san'atining rivojlanishiga yangidan-yangi imkoniyatlar ochib berdi. O'zbek madaniyatining rivojlanishiga butun dunyoga mashhur olimlar — Abu Ali ibn Sino (Avitsenna), Beruniy, Firdavsiy va Rudakilar yetishib chiqdilar. O'sha vatqda butun dunyoga mashhur bo'lgan (YUNESKO muhofazasidagi) Somoniy maqbarasi qurildi. U 1127-yili me'mor Arslon Muhammadxon boshchiligida pishirilgan oddiy g'ishtni har xil kombinatsiyalashtirib surilgan. G'ishtlar yoz faslida eng toza ganch bilan terilib ishlangan.

Xalq rivoyatlariga ko'ra, me'mor bu minorani qurgan-u, kuzdan g'oyib bo'lgan. Imorat yaxshi cho'kib, o'rnashib terilgan yaxlit toshga aylangandan keyin me'mor paydo bo'lib pardoiz ishlarini boshlagan.

«XIII asrda yuksak ko'tarilgan milliy madaniyatni mongol boqsinchilari izdan chiqardi. 1219—1221-yillarda Buxoro, Samarqand, Urganch, Balx, Marv bosib olinib tor-mor kilindi».

XIII asrda Chingizxon hukmronligida milliy san'at birmuncha izdan chiqsada, lekin butkul yo'q qilinmadi. Temur va temuriylar davrida esa o'zbek milliy xalq amaliy san'ati yuksak darajada rivojlandi.



«XIV—XV asrlarda O'rta Osiyo xaltqlari tarixida taraqqiy etgan feodalizm iqtisodiy- ijtimoiy formatsiyasi davrida feodal ishlab chiqarishga asoslangan o'ziga xos bir iqtisodiy- madaniy ko'tarinkilik ro'y berdi. Bu davrni biz hozir Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Kamoliddin Behzodga o'xshash juda ko'p iste'dodli adiblar, olimlar, mutafakkirlar, san'atkorlar nomlari bilan bog'liq bo'lgan Uyg'onish (Renessans) davri deb ataymiz. XIV—XV asrlarda Samarqandda tez sur'atlar bilan turli-tuman inshootlar qurila boshlagan. Bu qurilishlarda Hindiston, Eron, Iroq, Zakavkaze, xullas Amir Temur hukmronligi ostida bo'lgan barcha o'lkalardan kelgan me'morlar, hunarmandlar, ustalar, san'atkorlarni ko'rish mumkin edi. Ular o'zlari bunyod etayotgan inshootlarga butun bilimlari, hunarlari va san'atkorona mahoratlarini baxsh etganlar. O'sha davrda Samarqand va Movarounnahrning boshqa joylarida bunyod etilgan juda ko'p hashamatli tarixiy-madaniy obidalarda O'rta Osiyo xalqlaridan tashqari butun yaqin va O'rta Sharq xalqlarining o'ziga xos boy, sermazmun badiiy-estetik me'rosining sintezi qorishib, uyg'unlashib ketgan edi, desak mubolag'a bo'lmasa kerak».

Temuriylar xonligida hunarmandchilikyuksak darajada rivojlandi. U bosib olgan yerlardagi hamma ustalarni Samarqandga yig'di»,

U tikuvchi, toshtarosh, zargar, kulol, naqqosh va boshqa ustalarni olib kelib ishlatgan. Shu san'at turlari qatori naqqoshlik ham tez rivojlana boshladi. Temur hukmronligi ostida juda ko'p bino, machit, madrasa va boshqalar qad ko'tardi. Undagi bezaklar yanada badiiylashtirildi. Shaharlar atrofi bog'-u bo'stonga aylantirildi. Xullas, u o'zbek milliy madaniyatini rivojlantirishda katta qissa qo'shdi. Ayniqsa tasviriy san'at qaytadan tiklanib, tez orada rivojlanib ketdi. Devorlarda osmon, sobit sayyoralar, tog'lar, dengizlar, sahrolar odamlar, hayvonlar va boshqalar aks ettirildi. O'sha davrda tasviriy san'atning asosiy vazifasi hukmdorlarning kuch-qudratini, harbiy shavkatini ulug'lashdan iborat edi. Afsuski ko'pgina urushlar oqibatida hozirgacha qasrlardagi turar joylardagi va jamoat binolaridagi tabiat rasmlari bizgacha etib kelmagan. Ayrim qoldiqlargina saqlanib qolgan. Ayniqsa oppoq ganch ustidan chizilgan gullar, manzaralar, iplar tasviri nihoyatda nafis ifodalangan «Tabiat manzaralari musavvir tomonidan shu qadar ustalik va chaqqonlik bilan ado etilganki, uning qo'li bamisoli qush parvozidan erkin harakat qilgan, shoir tili bilan aytganda, tutgan mo'yqalami musavvirning o'z barmoqlariday aniq harakat qilgan, usta bilan qil o'tmas do'st mo'yqalam go'yo uning amriga maxtalday».

XIV—XV asrlarda koshinkorlik rivojlandi, qurilgan binolarni koshin va parchinlar bilan bezatish avj oldi. Koshin va parchinlardan ajoyib naqshlar hosil qilishga erishildi! Chunonchi, Samarqanddagi Shohi-Zinda kompleks. Ashratxona, Oqsaroy, Ko'hna Urganchdagi To'rabekxonim maqbarasi va boshqalardir. XV asrda naqqoshlik san'ati yanada rivojlandi. Natijada naqqoshlikda kundal texnikasi paydo bo'lib rivoj topdi. Samarqandda Ashratxona, Oqsaroy maqbaralari va boshqa arxitektura yodgorliklarining ichki qismini kundal usulida bezaldi.

Kundal — arxitekturada devorga bo'rtib ishlangan bezak texnikasi. Me'morchilikda keng tarqalgan. Mo'yqalam bilan devorga surtilgan qizil kesak bo'rtma shakl oladi, ustidan bo'yoq va zarhal beriladi. Zamin zarhalga, asosiy bo'rtma naqsh elementlari turli-tuman ranglarga bo'yaladi yoki aksincha, bo'rtma naqsh zarhalga, zamin esa turli rangga bo'yaladi. XV asrdan boshlab Samarqanddagi Ashratxona maqbarasi, Buxorodagi Amir maqbarasi, Baland machitida jozibador namunalar saqlangan. O'rta yerda kundal texnikasidagi bezaklar keng tarqalgan.





ATROF MUHIT EKOLOGIYASI

BO'LIMI

Konsultant: Mirkomilov I. M.

(imzo)

Bitiruvchi: Normirzayev U. A.

(imzo)

ATROF- MUHIT EKOLOGIYASI

Bugungi toboro rivojlanib borayotgan dunyoda taraqqiyot bilan birga atrof – muhit , ekologiya buzulishi ham kuchayib bormoqda. Atrof – muhitni , ekologiyani asrab-avaylash uchun har bir bajarayotgan ishimizning atrof-muhitga zarar yetkazmasligiga e'tibor qaratishimiz lozim.

Agar tabiatga ziyon keltiradigan holatlar vujudga kelsa , bu holatni to'liq bartaraf etishimiz , to'liq bartaraf etish imkoni bo'lmaganda esa iloji boricha ziyonni kamaytirishimiz darkor. Zero tabiatga keltirayotgan har bir zararimiz ertaga o'zimizga keltirayotgan zararimizdir.

Atrof- muhit ekologiyasi hususida bosh qomusimizda ham ta'kidlab o'tilgan. "Fuqarolar atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga majburlarlar."

(O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 50-modda)

Insonning tabiiy resurslardan noto'g'ri foydalanishi, sanoat, ishlab chiqarishning jadal rivojlanishi sababli tabiatga yetkazilgan zarar sayyoramizda ekologik muvozanatning buzilishi, iqlimning keskin o'zgarishi, turli kasalliklarning yuzaga kelishi, qurg'oqchilik, yer sathining cho'llanishi kabi global muammolarni keltirib chiqarmoqda. Bunday noxush holatlarning oldini olishda yosh avlodning ekologik bilimi va madaniyatini yuksaltirish, ularda ona tabiatga mehr va hurmat tuyg'ularini shakllantirish alohida ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Respublikasi inson huquqi va erkinligiga amal qilish, ijtimoiy va ekologik yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirish orqali dunyo hamjamiyatiga to'la huquqli integratsiyalashishni ta'minlovchi huquqiy demokratik davlat va ochiq fuqarolik jamiyatini barpo etmoqda. Respublikada amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi va harakatlantiruvchi kuchi insonning barkamol rivojlanishi va farovon hayoti, shaxs manfaatlarini amalga oshirish sharoitlari hamda amaliy mexanizmlarini yaratishdan iboratdir.

Xalqaro hamjamiyat insonning nafaqat yashash huquqi, balki to'laqonli va sog'lom turmush kechirishi uchun zarur mo'tadil atrof-muhit sharoitlariga ham ega

boʻlgan huquqlarining muqaddas va daxlsizligini allaqachonlar eʼtirof etgan. Ekologik xavfsizlik kishilik jamiyatining buguni va ertasi uchun dolzarbligi, juda zarurligi bois eng muhim muammolar jumlasiga kiradi.

Shuning uchun ham respublikamizda ekologiya xavfsizligi , atrof-muhit tozaligi , umuman olganda ekologik muammolarni oldini olishga qaratilgan bir qancha qonunlar joriy etildi.

Bular quyidagilar:

- Oʻzbekiston Respublikasining qonuni “Tabiatni muhofaza qilish toʻgʻrisida”
- Oʻzbekiston Respublikasining qonuni “Suv va suvdan foydalanish toʻgʻrisida”
- Oʻzbekiston Respublikasining qonuni “Atmosfera havosini muhofaza qilish toʻgʻrisida”
- Oʻzbekiston Respublikasining qonuni “Ekologik ekspertiza toʻgʻrisida”
- Oʻzbekiston Respublikasining qonuni “Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish toʻgʻrisida”
- Oʻzbekiston Respublikasining qonuni “Chiqindilar toʻgʻrisida”

Yuqorida koʻrib oʻtkanimizdek ekologiya, atrof-muhit tozaligi bu butun jahon muammosidir. Shunday ekan, har bir inson oʻz faoliyati davomida buni yodda tutishi va befarq boʻlmasligi lozim.

Ushbu diplom loyihasi Navoiy viloyatiga taklif sifatida berilgan.

Navoiy viloyati - OʻzR tarkibidagi viloyat. 1982 y. 20 apr.da Buhoro va qisman Samarqand viloyatlari hududlaridan tashkil etilgan. 1988 y.da ma'muriy birlik sifatida tugatilib, 1992 y. boshida qayta tiklandi. Shim. va shim.-sharhdan Qozogʻiston, jan.sharqdan Jizzah, Samarqand, jan.dan Qashqadaryo, jan.-gʻarbdan

Buhoro viloyatlari bilan chegaradosh. Mayd. 111,0 ming km². Aholisi 802,3 ming kishiga yaqin (2003). N.v. tarkibida 8 qishlok tumani (Konimeh, Navbahor, Navoiy, Nurota, Tomdi, Uchquduk, Hatirchi, Qiziltepa, 5 shahar (Zarafshon, Qiziltepa, Navoiy, Nurota, Uchquduq), 8 shaharcha (Konimeh, Langar, Malikrabot, Muruntov, Tinchlik, Shalhar, Yangirabot, Qozg'on) va 53 qishlok fuqarolari yig'ini bor (2003). Markazi - Navoiy sh. Tabiati. N.v.ning hududi tabiiy sharoitiga ko'ra, 3 qismga bo'linadi: viloyatning shim.-g'arbiy qismini Qizilqum cho'li egallagan - bu erda berk botiqlar (Karag'ota, Mo'lali, Mingbulok), eol qumli tekisliklar va qoldik tog'lar (Ovminzatog', Etimtog', Bo'kantov, Tomditov va h.k.) bor; jan.sharqiy qismini Nurota toq tizmalarining g'arbiy qismi past va o'rtacha balandliklardagi toqlar (Noratog', Oqtog' va b.) hamda tog'lararo botiqlar (Nurota botig'i va b.) egallagan; Zarafshon daryosi vohasining o'rta qismida viloyatning pahtachilik zonasi o'rtnashgan. N.v.dagi tog'lar, asosan, silur, devon, toshko'mir, bur, paleogen, neogen davrlari jinslaridan tuzilgan. Tekislik va qumliklar to'rtlamchi geologik davrdagi kompleks tabiiy omillar ta'sirida o'zgargan. Muruntovda oltin, Ovminzatog' shim.da grafit topilgan. Viloyatda volfram, fosforitlar, kvars qumi, sement, ohaktoshning zahiralari mavjud. N.v.da mineral shifobahsh, sho'r va er osti chuqur suv zahiralari aniqlangan. Chunonchi, Tomdibulok, Qaraqota, Chingildi atroflaridan topilgan suvlardan ho'jalikda keng foydalanilmoqda. Viloyat seysmik jihatdan 7 balli zilzila zonasiga kiradi. Qizilqum cho'li tufayli iqlimi keskin kontinental cho'l iqlimi: yozi uzoq, quruq. issik, iyulda o'rtacha t-ra 27,2-29,6°, kumda oftobda t-ra 60-70° gacha ko'tariladi. Yanv.da o'rtacha t-ra - 1,9° dan -0,6° gacha. Cho'l va yaylovlarda, vohalarda iqlim o'rtacha. Yorin, asosan, bahor va qishda yoqadi. Yillik yorin 125-282 mm. Vegetaciya davri 177-212 kun. N.v.ning asosiy suv manbai - Zarafshon daryosi. Zarafshondan Konimeh kanali chikarilgan. N.v.ni suv bilan ta'minlashda ?uyimozor, To'dako'l suv omborlari, Konimeh kanalining ahamiyati katta. Viloyatning shim. va g'arbiy katta qismi ko'chma qum barhanlari, unda-bunda uchraydigan gilli cho'llardan iborat. Astragal, shuvok, sho'ra, isirik, qamish, zarpechak, saksovul, yulqun, va b. cho'l o'simliklari o'sadi. Cho'l tuproqlarida chirindi kam, ohak, gips, eruvchi tuzlar ko'p. Cho'l o'simliklari, ayniqsa, sho'ra, shuvoq kabilar qorako'l qo'ylari va b. mollar uchun ozuqa bo'ladi. Bukantovda va Mingbuloq botig'ida qobon, bo'ri, chiyabo'ri, tulki, uzun dumli mushuk, cho'l mushugi, boshqa yerlarda malla yumronqoziq, kalamush, sichqon, suqur, sassiqko'zan, jayron, kaltakesak, turli hil ilonlar, toshbaqa, qushlardan tuvaloq, qorabovur, olabovur, qirqovullar, qarg'a, qakka, musicha, chumchuq uchraydi.

Qizilqum cho'lida pastak ko'hna toqlar, Mingbuloq botiqi, shuningdek, qaraqota havzasi, sho'rhok tekisliklar va pastliklar, qator qum tepalari alohida manzara kashf

etgan. Yaylovlarda chorva boqiladi. Saksovul, qandim, cherkez, singren, oqpechak, selin, efemer va sho'ralar chorva mollari uchun ozuqa.

Aholisining ko'pchiligini o'zbeklar (63,3%) tashkil etadi. Shuningdek, rus (13,5%), qozoq (11,5%), tatar (2,6%), ukrain (1,4%), qoraqalpoq (1,4%), tojik (1,3%), ozarbayjon (0,9%), belorus (0,2%) va b. millat vakillari yashaydi. 1 km² ga o'rtacha 7 kishi to'g'ri keladi. Shaharliklar - 319,7 ming kishiga yaqin, qishloq aholisi - 482,6 ming kishidan ziyod (2003).

O'simliklar hususiyatlari. Tabiat mo'jizasi bo'lgan gullarning turlari va hillari juda ko'p. Honaki gullarni o'stirish, parvarish qilish va ularning keng tarqalgan ayrim turlari hususida to'htalib o'tamiz. Honadonlarda gul parvarish qilmoqchi bo'lgan kishi gullarning qanday sharoitda o'sganidan habardor bo'lishi uchun ham uning qayerdan keltirilganini - vatanini bilishi lozim. O'simlik haqidagi ma'lumotlar, bilimlar asosida esa ularning umumiy parvarishi to'g'ri yo'lga qo'yiladi, kerak vaqtda kerakli miqdorda sugoriladi, issiq-sovuqqa chidamli-chidamsiz ekaniga qarab ma'lum ajratilgan honalarga joylashtiriladi, gulning tabiatiga muvofiq keladigan tuproqli aralashmalar tayyorlanadi va h.k. Honaki gullar odatda deraza tokchalarida, gul tuvaklari qo'yiladigan mahsus moslamalarda turadi. Gullar uy havosini tozalovchi vazifasini bajarish bilan birga kishi ruhiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatish hususiyatiga ega. Ahir tashqarida yomgir, qor yogib turganida honada yashnab turgan gullar kishi bag'ri dilini ochadi-da. Shuning uchun g'am gullarni parvarish qiluvchi kishilar honaki gullarning ayrim turlarini yoz mavsumida usti ochiq bogchaga, erga ekishni ma'sul ko'radilar. Ayniqsa, bir yillik o'simlik ko'p yillik o'simliklar bilan boqcha shakliga moslashtirilib, boshqa o'simliklar bilan rangi va gullariga uygunlashtirishshb ekilsa, bu bog ko'rkini yanada ochib yuboradi.

Hona sharoitida o'stirib parvarish qilinadigan gullar o'z hususiyatidan kelib chiqib: yorug'likni sevuvchi, soyasevar va soyaga moslashuvchi turlarga bo'linadi.

- yorug'likni sevuvchi o'simliklar yorug'lik ko'p tushadigan joyda yahshi o'sadi (masalan, герань, qo'ngiroqcha, kaktus, afelyandra va h.k.).
- soyaga chidamli, moslashuvchan honaki o'simliklar yorug'likda g'am, soyada g'am birdek o'saveradi (masalan, aloe, plyush, asparagus va boshqalar).
- soyasevar o'simliklar yorug'lik tik tushmaydigan, hatto etarli bo'lmagan soya joyda o'zini tutib juda yahshi o'sadi (paporotnik, tradeskanciya, aspidistra, kliviya, ruskus va boshqalar).

O'simliklarga oyna orqali tushadigan yorug'lik tabiatdagi kabi yuqoridan, tik emas, yon tomondan tushishi kerak. Deraza oynasi yorug'likning deyarli yarmini yutib, yarmini o'tkazadi. Agar tuvakdagi gul deraza oynasidan 1 metrga uzoqlashtirilsa, yorug'lik nuri kamayib, u 7,6 foizga tushib qoladi. Shunga ko'ra yorug'lik bir deraza oynasidan honadagi o'simliklarga bir hil tushadi deb bo'lmaydi.

Honaga yoruglik tushishi kunning uzun-qisqaligiga g'am bo g'liq. Shuning uchun kuzgi mavsumda tahminan 23 sentyabrdan so'ng honaki gul va o'simliklarni qo'zgatmasdan, qo'shimcha yoru?lik berish mumkin bo'lgan joyga ko'chirish kerak. Bunda 20-40 Vt bo'lgan lampalar yoqilib, qo'shimcha yoruglik beriladi. Lampalar o'simlik va gullarga 10-40 sm gacha uzoqlikda turishi lozim. Lampalar qoron g'i tusha boshlaganida yoqiladi va tahminan 10-12 soatga yoqib qo'yiladi. Shu tariqa bahor mavsumigacha chiroq yoqish soati sekin-asta kamaytirib boriladi va mart oylarida to'htatiladi.

Olimlarning ta'kidlashlaricha, ko'pgina honaki gul va o'simliklar hona mikroiqlimiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ularda hona sharoitida tez ko'payadigan zararli mikroorganizmlarni o'ldiruvchi uchadigan fitoncidlar mavjud: hatto shunday o'simliklar ham borki, ular kompyuterda ishlovchi, uy-ro'z g'orda qo'llanadigan elektr asboblarni ko'p ishlatadigan kishilarni elektromagnit maydoni ta'siridan saqlaydi (Masalan, kaktus, semizo't, kalanhoe va boshqalar). Difenbahiya gulining barglari yirik, oval shaklida bo'lib, chiroyli chiziqlari bor va u o'zidan ajoyib hid taratadi. Difenbahiya o'z xususiyatiga ko'ra «ekzotika» nomini olgan. Bu gulning bo'yi naviga qarab turlicha: ba'zilar 2 m va undan ortiq bo'lsa, ba'zi turlarining bo'yi 15-20 sm dan oshmaydi. Bu gul honada bo'lgan vaqtda qavoni tozalaydi. Salbiy tomoni: uning sar g'aygan, qurigan barglarini kesgan zahoti qo'lni tezda sovunlab yuvish kerak, chunki u o'zidan zaharli suv chiqaradi. Shuningdek zaharli suvning ogiz va ko'zga sachrashidan saqlanish lozim.

Harorat va iqlimning ekologiyaga ta'siri. Qaroratning oshishi insoniyatga bevosita emas, balki bilvosita ham havf tug'dirishi mumkin. Harorat, namlik va quyosh nuri bilan ta'minlanganlik o'zgarsa qishloq ho'jaligi sohalarini o'zgartirishi turgan gap. Iqlim modellariga ko'ra o'rtacha global haroratning ortishi dengiz sathining ko'tarilishiga (ya'ni, qishloq ho'jaligi erlarini suv bosishi va qirg'oq bo'yi sizot suvlarining sho'rlanishi), bo'ronlar va jazirama kabi ekstremal tabiiy hodisalar qaytarilishining ortishiga hamda iqlim mintaqalarining qutblarga qarab ko'chishi va quruqlik yuzasi katta qismida tuproq namligining kamayishiga olib keladi. Bundan tashqari yo g'inlar rejimining hududiy sharoitlari o'zgarishi mumkin, ya'ni yo g'inlar miqdori ko'payadi, lekin ular tezroq bug'lanadi va o'simliklarning o'sish davrida tuproq qurib qoladi. Ilgari qur g'oqchilik bo'lmagan rayonlarda qur g'oqchiliklar paydo bo'lib toza, musaffo suv zahiralarini kamaytirishi mumkin.

Iqlim va agroiklim zonalari qutblarga qarab siljishi mumkin. Haroratning ortishi ekvator zonasidagina emas, balki qutb tumanlarida yuqoriroq bo'lishi tufayli iqlim zonalarining siljishi ham yuqoriroq kengliklarda yanada ravshanroq bo'ladi.

Mo'tadil kengliklar (45° da 60° gacha) ?ududlarida kutilayotgan siljish haroratning har bir daraja ortishiga 200 - 300 km ni tashkil qilishi mumkin. Bunday siljishlar

qishloq ho'jaligi ekinlari etishtirishga va qoramol boshlarini parvarishlash sharoitlariga kuchli ta'sir ko'rsatadi.

Chegaralovchi omili harorat bo'lgan ekinlar rivojlanishi uchun ko'proq vaqt talab qilinadi. Masalan, Kanada preriylarida o'rtacha yillik haroratning Celsiy bo'yicha har bir daraja ortishi o'sish davrini 10 kunga uzaytirishi mumkin.

Yozgi qur g'oqchilikning ortishi natijasida mo'tadil kengliklarda o'simliklarning hosili 10 - 30 % gacha kamayishi mumkin. Haroratning ortishi tuproq namligini kamaytiradi. Mo'tadil kengliklarda yillik haroratning 1°S ga ortishi natijasida bug'lanish sur'atlari tahminan 5 % ga ko'payadi va balki AQShning Buyuk tekisliklari kabi bugungi kunda etakchi bug'doy etishtiruvchi rayonlar qurg'oqchilik va jazirama to'lqinlarni ko'proq boshidan kechiradigan bo'lib qoladi. Masalan 1988 yilgi uzoq qur g'oqchilik vaqtida AQShda makkajo'huri hosili 40 % ga qisqardi.

O'rtacha kenglikning qutblarga yaqin qishloq xo'jalik rayonlari: Shimoliy Yarim sharda Shimoliy Kanada, Skandinaviya, Rossiya va Yaponiya, Janubiy Yarim sharda Chilining janubi va Argentina uchun haroratning ortishi bir qaraganda qandaydir foyda ham keltirishi mumkin. Ammo yangi iqlim zonasining hozirda qishloq ho'jaligi intensiv asosda tashkil qilingan mamlakatlarda etishtiriladigan ekin maydonlarining kamayish o'rnini to'ldira olmaydi. Masalan, Kanadaning subtropik rayonlarida hozir g'allani ko'p beradigan janubidagidek iqlim sharoitlari vujudga kelganida ham u joylarning unumsiz tuproqlari hosil o'sishini ta'minlay olmaydigan bo'lishi mumkin.

Iqlim o'zgarishining ijobiy oqibatlar ham mavjuddir. Umuman olganda SO₂ miqdorining o'sishi, uning yuqori rivojlangan o'simliklarda fotosintez jarayonini tezlashtirishi hisobiga ayrim qishloq xo'jaligi ekinlari mahsuldorligini keskin oshirishi mumkin. SO₂ miqdorining 2 marta ortishi fotosintez sur'atini 30-100% tezlashtiradi. Bu ayniqsa, o'rtacha kenglikdagi asosiy ekinlar - bu g'doy, sholi va soya dukkaklari uchun juda qo'l keladi. Haroratning ortishi ayrim biologik turlar uchun qulay omil bo'ladi, lekin hammalari uchun emas. Iliqroq iqlim, misol uchun o'simliklar uru g'ining unib chiqishiga yoki hayot siklining boshqa hal qiluvchi bosqichlariga ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Atrof-muhit muhofazasi. Er yuzida aholi 6 milliard 700 millionga yaqinlashib qoldi. Shuncha odamning ehtiyojini qondirish barobarida, ona sayyoramizni kelajak avlod uchun ham bus-butunligicha saqlab qolish kerak. Mamlakatimizda tabiatdan oqilona foydalanish, uning boyliklarini muhofaza qilish, tabiat bilan inson o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solish borasida tegishli qonunlarni ishlab chiqish va hayotga tatbiq etishga katta e'tibor berilmoqda. O'zbekiston Konstituciyasida "Fuqarolar tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga majburlar" (50-modda), "Er, er osti boyliklari, suv, o'simlik va hayvonot

dunyosi hamda boshqa tabiiy zahiralar umummilliy boylikdir, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidadir" (55-modda) deb mustahkamlab qo'yilgan. "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi qonun qabul qilindi. Tabiatga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish, uning boyliklariga egalik, ekologik vaziyatni tartibga solish, aholining ekologik madaniyatini oshirish yuzasidan muhim sa'yharakatlar olib borilmoqda.

Atrof-muhit muhofazasida eng muhim voqea - 1992 yili Rio-de-Janeyro shahrida BMTning "Atrof-muhit va rivojlanish"ga ba'g'ishlangan konferenciyasi bo'ldi. Respublikamizda bu halqaro konferenciyadan keyin "Alohida muhofaza qilinadigan hududlar to'g'risida" (1993), "Er osti qazilma boyliklari to'g'risida" (1994), "Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risida" (1996), "O'simlik dunyosini qo'riqlash va undan foydalanish to'g'risida", "Hayvonot dunyosini qo'riqlash va undan foydalanish to'g'risida", "Energiyadan oqilona foydalanish to'g'risida" (1997), "O'rmonlar to'g'risida"gi (1999) qonunlar qabul qilindi.

O'zbekiston BMT qarorlariga tarafdor ekanini ifodalab, 1993 yilda uning iqlim o'zgarishi to'g'risidagi Ramkaviy konvenciyasi, 1995 yilda ozon qatlamini himoya qilish bo'yicha Vena konvenciyasini va unga tuzatishlarni, 1999 yilda iqlim isib borishining oldini olish to'g'risidagi Kioto protokolini imzolagan.

Er yuzidagi hozirgi geoekologik vaziyat har bir davlatdan tabiat muhofazasiga va uning boyliklaridan oqilona foydalanishga jiddiy ahamiyat berishni talab etmoqda. Mamlakatimizning tabiiy sharoiti turlicha bo'lgan hududlarida ham tabiatdan foydalanish borasidagi noto'g'ri hatti-harakatlar uchun bir hil jazo belgilangan. Ammo tabiiy sharoitiga ko'ra buzilgan landshaftni tiklash turli miqdorda harajat hamda vaqt talab qiladi. Shu bois, tabiatni muhofaza qilishga oid qonunlarni ham tizimlashtirish zarurati yuzaga kelmoqda.

Hali dunyoda ham, yurtimizda ham tabiatni muhofaza qilish, boyliklaridan oqilona foydalanish borasida hal etilmagan muammolar talaygina. Ularni bartaraf qilish aholining tabiat muhofazasi, geografik qonuniyatlar haqidagi bilim darajasiga ko'p jihatdan bo'g'liq. Fuqarolarning geoekologik tarbiyasi yuqori, bilim darajasi etuk bo'lsa, tabiatdan foydalanish madaniyati ham shunchalik ortadi. Demakki, bu boradagi zarur bilimlarni o'rganish, ularga qat'iy amal qilish va salbiy o'zgarishlarning oldini olish hozirgi kunda eng dolzarb vazifalardan biridir.

„Yer -hazina” deydi xalqimiz ona zaminni ardoqlab. Yer boyliklarini muhofaza qilish ham hayotimizda muhim ahamiyat etadi. Yer manbalarini muhofaza qilish tadbirlari ham muvaffahiyatli davom ettirilmoqda. Jumladan, NKMKda 17 ga erlarda rekul'tivaciya ishlari olib borilmoqda. „Qizilqumsegment” AJda 24000 kv.m erlarda chiqindilardan tozalash va chang bostirish ishlari amalga oshirildi. NKMKda 20 ming tonna chiqindi chiqarilgan, 1-GMZda inert massa ekrani qurish uchun jami 1381 ming tonna hajmdagi tuproq yotqizilgan.

“Qizilqumsement” AJ tomonidan 20 500 ta, NKMK tomonidan 12283 ta daragt va gul ko'chatlari ekilgan.

Ma'lumki, chiqindilarni joylashtirish ham bugunning muhim ekologik muammolaridan biri sanaladi. Konchilik ishlari va chiqindilarni joylashtirish borasidagi ishlar ham samarali tashkil etilgan. Birinchi chorakda 6000 dona tarkibida simob moddasi bo'lgan har hil markadagi yaroqsiz lyuminisient lampalar demerkurizasiyalashtirildi, 342 ming/tonna har hil ishlab chiqarish va maishiy ho'jalik chiqindilari belgilangan joylarga joylashtirildi, hamda 5 dona chiqindilarni vaqtinchalik saqlash maxsus konteynerlari ta'mirlandi va shu jumladan yangilari o'rnatildi. Shuningdek, 601,529 ming tonna ustki qatlam tog' jinslaridan iborat bo'lgan chiqindilar qurilish hom ashyosi sifatida qayta foydalanildi.

2013-2017 yillarga mo'ljallangan atrof- muhitni muhofaza qilish hududiy dasturi ishlab chiqilib, dasturning bajarilishi uchun 2013-2015 yillarda 8415726,677 ming so'm sarflandi.

Muhtasar qilib aytganda, atrof-muhit bilan bog'liq muammolarning oldini olish, ekologik hafsizlikni ta'minlash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ekologik bilimlarni keng targ'ib qilish va ekologik madaniyatni oshirish borasidagi ishlarimiz izchil davom ettiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

Asosiy adabiyotlar:

1. “Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch” I. A. Karimov
2. “O’zbek xalq amaliy bezak san’ati ” S. Bulatov Toshkent 1991 y.
3. Buxoro zardo’zlik san’ati. P. A. Goncharova
4. Adilova L.A Landshaft arxitekturyasi.Toshkent,2009 y.
5. “Me’mor olami” P.SH Zohidov.Toshkent 1986 y.
6. “Markaziy Osiyo me’morchiligida Interier” D.A.Nozirov.
7. “Me’morchilik asoslari”Z.Do’stimetova Toshkent 2007 y.

Qo’shimcha adabiyotlar:

1. SHNK “Bino va inshootlarning yong’in xavfsizligi”
2. Spravochnik proektirovshika M.1996 g.
3. “O’zbek xalqlari tarixi”(1-2 jild) lar Toshkent 1992 y.

Internet saytlar:

www.google.ru “O’zbekiston ekologiyasi”

www.google.map

www.google.ru “Termiz tumani ekologiyasi”